4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
7. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
8. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
9. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
- 10.S. Pavlina. "Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish". (2006).
- 11.V. V. Kunitskaya. "Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari" Ijtimoiy o'qituvchi . (2017)
- 12.<https://forumdemo.ru/>
- 13.<https://uz.unistica.com/>

ОИЛАВИЙ ИНҚИРОЗЛАР ПСИХОЛОГИЯСИ

*п.ф.н. Абдурахманова Зухра Эркиновна
ЎзМУ “Ижтимоий психология”
кафедраси доценти
Хасанова Дилорам*

Оила бу икки жинс бирлиги ўзаро мулоқоти, болалар, ота-она ва катта авлодлар ўртасида содир бўладиган муносабат сифатидаги мураккаб ижтимоий-психологик жараён дир.

Оила бу инсонни яшаш макони ҳар доим биргаликда фаолият кўрсатувчи ҳаёт жараёни ҳисобланади. Оила бу кўп қиррали фаолият макони яшаш шароити кичик ижтимоий гуруҳ. Ҳар қандай оилани шаклланиш давомида кўплаб зиддиятлар, келишмовчиликлар, низоли вазиятлар юзага келади. Энг салбий томони уларнинг ажралиб кетиши ва болаларни тирик етим қолишидир. Буларнинг барчаси оилада содир бўладиган кризислар билан боғлиқ.

Кризис- грекчада “**ҳал қилиш**”; “бурилиш пункти” деган маъноларни англатади. “Кризис” бу-оилада яширин низоларни ва мос келмасликларни юзага келтириб, ўзига хос бўлган манфаатларни шакллантиради ва оила ҳаётида зиддиятларни, можроларни жараён сифатида вужудга келтиради.

Оилавий муносабатлар келиб чиқиш ва давомийлигига кўра оилани 4-та типга ажратиб кўрсатиш мумкин.

1. Можароли оила
2. Муаммоли оила
3. Невротик оила
4. Кризисли оила

Можароли оила – кўп ҳолларда турмуш ўртоқларнинг манфаатлари бири-бирига зид келганда, оилавий муносабатларда салбий эмоцияларни устун туриши. Айрим масалаларда қарама-қаршилик мавжуд бўлади. Лекин бу муаммолар чуқурлашиб борса кризисли оилага айланиши ҳам мумкин бўлади.

Муаммоли оила – узок вақт давомида ижтимоий муаммоларни мавжудлиги, турмуш ўртоқларни ўзаро муносабатида келишмовчиликларни келтириб чиқариш

Невротик оила – психологик ва ижтимоий қийинчиликларни йиғилиб бориши, турмуш ўртоқларнинг бирини соғлиғини ёмонлашиши ва бунинг натижасида оиладаги психологик иқлимни бузилиши. Невротик оила ўзига яраша муаммоларни олиб юривчи оила ҳисобланади. Невротик оилада турмуш ўртоқлар ўртасида бўладиган мулоқатдаги эмоционал ҳолатлар кўпроқ

учрайди. Турмуш ўртоқларни ўзаро ҳурмати ва йўқолиши, бир-бирига агрессив муносабат ёки ҳавотирланиш ҳисси билан боғлиқ жараёнлар ҳисобланади.

Кризисли оила – турмуш ўртоқлар фаолиятида манфаатлар тўқнашишининг кескин тус олиши, келиша олмаслик. Кризисли оила ўзини зиддияти жиҳатидан ажралишга қараб бораётган оила ҳисобланади. Турмуш ўртоқлар ўртасида муносабат мавжуд эмас, улар ўзаро душманлик ҳолатидадир. Уларни келиштириш ниҳоятда қийин масала ҳисобланади. Уларни келиштирганда ҳам оила ичидан дарз кетган ва оила бўлиб яшаш учун имкониятлар чекланган ҳисобланади.

Оиладаги содир бўлувчи инқирозлар турмуш ўртоқларнинг манфаатларини ўзаро мос келмаслигидан келиб чиқади. Оиладаги ҳар бир шахс ўзининг манфаатларига эга бўлади. Оилада эса бу манфаатлар ўзаро келишувлар асосида ечилади. Оила манфаатларини тўғри келмаслиги эса можароларни ҳосил қилади.

«Норматив инқироз» тушунчаси —оиланинг ҳаётий цикли атамаси билан боғлиқ бўлиб, илк бор 1948-йилда олавий ҳаёт борасидаги миллий умумамерика конференциясида Э.Дювалл ҳамда Р.Хил томонидан қўлланилган. Улар оилани фаолият юритиши икки қонун: гомеостаз қонуни ҳамда гереостаз (ривожланиш) қонуни билан аниқланадиган динамик тизим сифатида ўрганилган.

Гомеостаз қонунига кўра ҳар бир оила ўзининг актуал ҳолатини сақлаб, уша нуқтада қолишга ҳаракат қилади.

Гетеростаз қонунига кўра ҳар бир оила тизими ўз ҳаёт циклини – қандайдир босқичларнинг кетма-кет алмашинувчи босқичидан ўтиши лозим. Оила психологиясидаги энг кенг тарқалган даврлаштиришлардан бири Э.К. Васильева томонидан таклиф этилган даврлаштириш саналиб, унда оилавий циклнинг беш босқичи ажратилади:

1. Оиланинг вжудга келиши: никоҳ тузилгандан бошлаб биринчи фарзанд туғулгунга қадар.
2. Болаларнинг туғилиши ва уларни тарбиялаш: камида бир фарзанднинг меҳнат фаолиятини бошлаб олгунга қадар бўлган даври.
3. Оиладаги тарбия вазифасини бажаришнинг тугаши: биринчи фарзанднинг меҳнат фаолиятини бошлаган даврдан то болаларидан ҳеч бирини ота она ўз қармоғига олмай қўядиган ёшга етгунларича бўлган давр.
4. Ота-оналарнинг болалари билан биргаликда яшайдиган даври бўлиб, бунда фарзандлардан камида биттаси ўз оиласига эга бўлмаган давр.
5. Эр-хотин мустақил оиласи бор фарзандлари билан бирга яшайди

Тизимли ёндошув доирасида илк бор оиланинг Ҳаёт циклини батафсил тасвирлаб бериш Дж. Хейлининг (1973) «Ноодатий психотерапия» китоби дапайдо бўлди. У инқироз симптомлари (аломатлари) кўпроқ бир босқичдан

бошқасига ўтиш нуқталарида пайдо бўлишини таъкидлайди. Ўтиш даврида оила аъзолари олдида уларнинг муносабатларини қайта кўриб чиқиб ўзгартириш лозим бўлган янги вазифаларни қўяди. Оила ўзининг янги ривожланиш босқичига ўтиши учун ўзининг тузилишни ўзгартириши, жорий ҳолтга мослашиши ва ўзининг янги ҳаёт тарзини яратиб олиши лозим бўлади. Ўтиш нуқтасидаги барқарорлашув даврлари инқирозли даврлар билан алмашиб, ундаги мувофақиятли ўтиш оиланинг янги босқичларида таъсир кўрсатади. Бироқ вазиятли шартли ҳолатлардан фарқли равишда ушбу ўзгаришлар ривожланишнинг инқирози (кризиси) билан боғлиқ, адабиётларда улар «норматив» (меъёрий) ўзгаришлар тарикасида ўрганилади. Айнан ана уша пайтларда оилада илгари қўлланилган мақсадга эришиш йўли самара бермай қўяди, сабаби бу ерда оила аъзоларида янги эҳтиёжлар пайдо бўлган бўлади.

Ҳар бир янги босқич оила тизимининг барча янги ўзгариши билан боғлиқ. Кўплаб оилалар янги шарт-шароитларга мослашган ҳолда шароитни ўзгартириб ушбу вазиятни ҳал қиладилар. Одатда, ушбу жараён оила аъзоларининг шахс сифатида етукликга эришиши билан кечади. Бироқ агар оила шароитга мослаша олмаса иоланинг оидида вжудга келувчи келажақдаги муаммоларни ечиш мураккаблашиб кетади ва бу ўз навбатида навбатдаги норматив инқирозни енгиб ўтиш имконини қийинлаштириб юборади.

Шундай қилиб, оила ўзининг ривожланиш йўлида қатор босқичлардан ўтиб, улардан ҳар бири инқирозларни ҳам, оила аъзоларининг шахс сифатида етилишини ҳам ва яна олилавий тизимни бир яхлид бўлиб ривожланишини ҳам ўз ичига олади. Инқирозни бошдан кечириш билан ҳар қандай ривожланиш учун хос бўлган ва ушбу инқироздан қочишга уриниш ҳам табиий бўлган хавф билан боғлиқ.

Агар оила бир тизим сифатида унинг табиий динамикаси билан боғлиқ ўзгаришлардан қочишга ўринса, бу унинг аъзоларида негатив симптомиканинг – психосоматик, сексуал (жинсий), эмоционал (руҳий) парокандаликларни келтириб чиқариши мумкин.

Инқироздан чиқиш - Ё оила аъзоларининг орасидаги янги муносабатларнинг ўрнатилиши, янги ролларни бажаришга кириши, ўзаро муносабатларнинг янги босқичига ўтиш кабилар билан, ёки (аввалги ҳаёт тарзини Ҳар Қандай Қиймат билан сақлаб Қолишга уринишда) – эмоционал бегоналашув ва оила аъзоларининг ўзаро муносабатлари кечкинлашуви билан кечиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алешина Ю.Е индивидуальное и семейнопсихологическое консультирование М 2004
2. Васи́ла Каримова «Оила психологияси» Т 2007
3. Олифи́рович Н.И Зинкевич-Куземкина «Психология семейных кризисов»
4. -СПб Реч 2006-2006с

BAHTLI HAYOT UCHUN BIR QADAM

p.f.n. Abduraxmonova Zuxra Epkinovna
O'zMU "Ijtimoiy psixologiya"
Kafedrasi dotsenti
Xasanova Diloram Xotamovna

Oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, muqaddas maskan. Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat — Bosh Qomusimizda oila masalasiga alohida urg'u berilgani ham bejiz emas, albatta. Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan¹ Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Ya'ni oila ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina, mustahkam bo'ladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta, qudratli bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev takidlaganidek "Oila va jamiyat" ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlagash, ularga hurmat va ehturim ko'rsatish halqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.²

Zero, oila faravonligi – milliy farovonlik asosidir. Shu boisdan kishilik jamiyatida oilaning paydo bo'lishi tarixini, ijtimoiy mohiyatini, ahloqiy – tarbiyaviy ro'lini va boshqa xususiyatlarini o'rganish g'oyat muhimdir. Bu ko'p qirrali muammo bo'lib jamiyat taraqqiyotini belgilaydi, yani barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda jiddiy ahamiyatga ega. Haqiqatdan, inson salomatligi va ma'naviy kamolotning birinchi poydevori oilada qo'yilar ekan, bu borada o'zbek xalqining oilada farzand tarbiyasi diqqatga sazovordir. Bu tajribada milliy tarbiya an'analari, inson ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan umumiy insoniy qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan.

Xozirgi kunda oila qurish turli usullarga bo'linib ketdi azaliy qadriyatlarimiz uruf odatlarimiz negadir yod tushunchaga aylanib bormoqda. Xo'sh bu nimadan dalolat beradi? Oila o'zi nima? Bu xaqida yoshlarimizning fikirlari qanday? Oila muqaddasligiyu uning masuliyatlari xaqida qanday bilimlarga tajribalarga ega? Oila mustaxkamligi xayotning turli burilishlaridagi vaziyatlarga javoblari qanday? Shu kabi savollarga hozirgi 21-asr yoshlari qanday javob berishmoqdalar?

¹O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2014y.

² SH.M.Mirziyoyev. erkin farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T." O'zbekiston". 2016 y., 12 b.

Oila har birimiz uchun hayotdagi eng muhim narsa. Hech qanday qiymat va boylik oilaning o'rnini bosa olmaydi. Ammo oila doimiy oziqlanishni talab qiladigan nozik bir makon. Sevgi, sadoqat, ishonch, hurmat, g'amxo'rlik kabi ilohiy tuyg'ular bilan uni oziqlantirish mumkin.

Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa jamiyat ham osiyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol xaromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buzuladi, tinchi yoqoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimda oila masalasida katta etibor berib uning mustahkam va baxtiyorligiga imkonlari boricha barcha chora tadbirlarni ko'rishgan. Ammo ming afsuslar bo'lsinki so'ngi payitlarda bazi bir g'arb madaniyatlari tasiri yani "Oilani keragi yo'q, nikox shart etmas" "Nasil-nasab haqida qayg'urish" "Ota-onaga etiborsizlig aloxida yashash" va shu kabi turli tuman oila mustahkamligini parchalanishiga sabab bo'ladigan omillar hayotimizga o'z tasirini ko'rsatib bormoqda. Bundan tashqari insonlarning oila mustahkamligi uchun sabir, qanoatli bo'lish dan uzoqlashib ketishmoqda.

Xozirgi kunga kelib oilaviy muammolar juda keng tarqalgan. Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan tug'ilayotgan bahslar, turmushning darz ketishi va u bilan bog'liq mojarolar, ayrim xonadonlardagi mavjud notinch ma'naviy-ruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masaladir. Arzimagan vajlar sabab oilani barbod etish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi.

Yangi kelinchaklarimizga bu katta ruhiy o'zgarish psixologik xolatlar, turli xil insonlar va ularning o'zgacha munosabat va fel atvor qadriyatlarini, o'z oilasidan ota-onasi xonadonidagi muhitdan o'zga oila muxitiga moslashish yangi kelinchakni birdaniga qamrab olib uni sarosimaga so'lib qo'yadi. Yangi kiyovimizda ham bunday o'zgarishlar bo'lmaydi uni bunday xolatlar chetlab o'tadi deb ayta olmaymiz. Unda ham to'ydan avval o'zining shaxsiy hayoti bo'lgan. To'ydan kegin masuliyati ikki karra ortishi o'z jufti xalolini yuqorida aytib o'tilgan holatlardan olib chiqishlik masuliyati zimmasiga yuklatiladi. O'zining rejalariga ayolini ham kiritadi. Onasiga opa-singil va ayoliga mehri to'g'ri taqsimlash barchaga birdek etiborda bo'lish, ro'zg'or atalmish masuliyatni xis qilishi lozim bo'ladi. Bunday xolatlar unda ham ruhiy o'zgarishlar bo'lishiga va asta sekin xayolot olamidan haqiqiy hayotga o'tishga majbur qiladi. Oiladagi mojarolarda qanchalik tadbirli bo'lyabsiz eshita olyabsizmi yo'kida qo'lingiz xarakatdami ayolingizga zo'ravonlik xo'rlashlar bilan o'z oilangizga sevgingizga darz ketishidan oilangizni asrang.

Oiladagi mojarolarda faqatgina kelin-kiyo'vni ayiblashimiz ham noto'g'ri bo'ladi albatta chunki bunda kelinimizning onalari va qaynonalarning ayiblari ham juda katta. Onajonlar bir payitlari o'zingiz kelinlik davrini boshingizdan o'tkanlari esing'izda yo'qmi turmushning pastu baland kunlari yaxshi va yomon vaziyatlar

bo'lishi bunga sabirli, itoatli, shirin so'zli muloyimlik bn yengib bunday kunlarni unutish kerakligini o'g'il qizlarga singdirish kabi masuliyatli vazifani bajargan edingizmi. Aziz qaynona onajonlar uyingizning yangi mehmoni qizalog'im deb qabul qilgan kelingizni hozirgi kunda uy yumushlari va o'zingizning oxiri yo'q talabraringizni ortiqcha taziqlarsiz sekin asta o'z tarbiyangizga olishdek masuliyatli vazifani bugungi kunda qanday bajaryabsiz? O'g'lingizni ortiqcha kelingizdan qizg'anishla oxiri yo'q xarxashalaringiz bir go'zal oilani barbod bo'lishiga sabab bo'lmayabtimikin? Xo'sh, nima uchun bunday holatlar vujudga kelyapti? Asl sababi nimada? Tahlillarga ko'ra, bu muammoning bosh omili — ularning huquqiy bilimga yetarli darajada ega emasliklari, huquqiy savodxonlik darajasining pastligidan dalolat beradi. Shuning uchun ular ajralish holati qanday oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydilar.

E'tibor qiling, ajralish tufayli noto'liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto'liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo'lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy yo'l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning barchasi asosan ajralish oqibatida yuzaga kelgan hamda noto'liq oilalarda bo'layotgani achinarli.

Statistikaga nazar soladigan bo'lsak, birgina Sergeli tuman FHDYO bo'limida joriy yilning dastlabki 9 oyi mobaynida 248 ta (191 tasi sud qarorlariga asosan, 57 tasi esa o'zaro rozilik bilan FHDYO bo'limida) ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlari qayd etildi.

Oilalarning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 28 ta holatda farzandsizlik, 7 tasida xiyonat, 34 tasida uzoq vaqt birga yashamaslik, 119 tasida oilaviy kelishmovchiliklar va qolgan holatlarda yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, ro'zg'orni moddiy ta'minlash, farzandlarni ma'nan hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, o'zaro muhabbatning yo'qligi, fe'l-atvorning to'g'ri kelmasligi, er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqqan.

Bilamizki, oilalar tinchligi va mustahkamligida oila boshlig'i — erkaklarning o'rni hamda mas'uliyati juda katta. Chunki hayotning qiyinchiliklarini ular o'z yelkalariga oladilar. Afsuski, amaliyotda ko'rib turibmizki, erkaklarning oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini yo'qotib qo'yayotgani, ya'ni ikkinchi darajaga tushib qolayotgan holatlar ham yo'q emas.

Xo'sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, ya'ni oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, ya'ni noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak. Yoshlar oila atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan, "Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimalar qilishim kerak?" degan savollarni o'ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, o'ta jiddiy masala deb qarasa, oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir noxush holatlarning oldi olinadi.

Baxt qasrining poydevorini mustahkam bo'lishi uchun birinchi qadamda chidam hamda mehnatdan bunyod bo'lishini yoshlarimiz yurakdan his etishlari zarur. Zero, o'z uyida baxtli bo'lgan insongina chinakam baxtiyordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi . T. 2006. 142 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2014y.
3. SH.M.Mirziyoyev. erkin farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T." O'zbekiston". 2016 y., 12 b.
4. "Baxtiyor oila" Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
5. "Oilada sevgi suhbatlari"
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/07/divorce-stat/>

SAID AHMADNING “SAROB”, “BORSA KELMAS DARVOZASI”, “AZROIL O‘TGAN YO‘LLARDA” HIKOYALARI TAHLILI

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti assistenti*

Imomqulova Gulchehra Norboboyevna

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va
adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Olloyorova Farangiz Dilmurod qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamining badiiy tahlili, “Qorako‘z majnun” asaridagi “Sarob” “Borsa kelmas darvozasi” “Oftob oyim” “Azroil o‘tgan yo‘llarda” kabi hikoyalar ham yoritib beriladi. Insonlarning qamoq lagerlaridagi og‘ir hayotlari haqqoniy badiiy tasvir vositalari bilan mahorat bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Fidoyilik tuyg‘usi, xotiralar, sadoqatlilik, vatan, ruhiyat, kechinma.

Abstract

In this article, the artistic analysis of "Korakoz Majnun" collection of stories by Said Ahmed, "Mirage", "Gate of no arrival", "Oftob Oyim", "Azrael on the roads" in the work of Karakoz Majnun are also included. will be illuminated. The difficult lives of people in prison camps are skillfully illuminated with realistic artistic means.

Key words: Sacrifice, memories, loyalty, country, spirit, experience.

Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plami asarida, yozuvchi o‘n to‘qqizdan ortiq hikoyalar kiritgan. Bu asarni avtobiografik asar deb ham aytishimiz mumkin, chunki bu asardagi ba’zi hikoyalarda yozuvchining o‘zi ishtirok etgan. “Qorako‘z majnun” asari mustaqillik davrimizda yaratilgan asarlardan biridir. “Qorako‘z majnun” asarini yozishda yozuvchi boshidan kechirgan voqealarni yana qaytadan eslab yozadi. Bu yozuvchi uchun juda qiyindir.

Said Ahmad: ”U voqealarni yozmoq uchun xayolan qamoq lagerlariga borishim, o‘sha azob-uqubatlarni qaytadan boshimdan kechirishim kerak “-deydi. (1.42-bet).

Yozuvchi uchun lager hayotini yozish qanchalik azob bo‘lmasin, lager hayotiga oid xotiralarni, o‘sha mudhish hodisalarni qog‘ozga tushurishga jazm etadi. ”Borsa kelmas darvozasi“, ”Taqdir, taqdir muncha shafqatsizmi?“ ”Oftob oyim” kabi turkum hikoyalar shu tariqa yaratilgan. “Qorako‘z majnun” asarining birinchi hikoyasi

“Sarob” hikoyasi hisoblanadi. Bu hikoyada Said Ahmad qamoq lageridagi voqea - hodisalarni eslaydi. Said Ahmad “Sarob” hikoyasiga “Ota qarg‘ishi misoli o‘q-u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi” jumlasini epigraf qilib olgan.(1.10-bet).

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi avlodlar silsilasi, otalar va bolalar muommosi alohida o‘rin tutadi.(1.5-bet).

“Sarob” hikoyasida ham ota va bola o‘rtasidagi muommolar aks ettirilgan.

“Sarob” hikoyasi lager qamoqxonasiga yangi mahbuslarning olib kelinishi bilan boshlanadi.”Bugun lagerimizga yangi mahbuslarni olib kelishdi, ko‘rinishidan ularni yangi deb ham bo‘lmasdi. Egnilaridagi kiyimlarga, yelka va tizzalaridagi raqamlarga qaraganda ko‘p yillardan beri lagerdan lagerga ko‘chib yurgan daydi mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi.”(1.10-bet). Mana shu daydi mahbuslar ichida asar qahramoni Kimsan ham bor edi. Kimsanboy maktabda yaxshi o‘quvchilardan edi. U Stalin haqida yozilgan she‘rlarga juda ham qiziqardi. Otasi unga unaqa havoyi ishlarga qiziqma der edi. Shu qiziqishi tufayli o‘zi bilmagan holda otasiga tuhmat qilib qamalishiga sababchi bo‘lib qoladi. Kimsanning otasi Olimjon Raxmonov juda o‘qimishli kishilardan bo‘lgan. Tarix bilimdoni bo‘lgan bu odamni tarix o‘qituvchilari ustoz deb atashardilar. U inson hech kimga yomonlik qilmasdi. Hattoki, qamoqda ham indamasligi uchun uni mahbuslar indamas deb atashardi. Ushbu asarda yozuvchi bir bolaning shuxratparasligi uchun otasini qamoq jazosiga mahkum qilingani, o‘zining qamoqdagi og‘ir kunlarini yoritib beradi. Ushbu asarni har bir o‘quvchi o‘qiganida tasirlanmasdan o‘qish qiyin, hattoki yozuvchining o‘zi ham bu asarni yozish jaroyonida, yana o‘sha davrga qaytganday bo‘ladi, yana o‘sha qamoqdagi og‘ir hayot, aybsiz odamlarni jazolanishini yozuvchi uchun bu juda ham qiyin ishdir. Yozuvchi ushu asarni yozganda, o‘sha voqealarni qaytatdan eslab, yana qamalib chiqqanday bo‘ladi.

“Qorako‘z majnun” asaridagi “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasi ham xuddi “Sarob” hikoyasi kabi qamoq lagerlarida bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Bu hikoyada ham qamoqdagi qiyinchilik kunlari tasvirlangan. Yozuvchi ushbu asarni yozish jarayonini: “Mana, ”Borsa kelmas darvozasi”ga nuqta qo‘ydim. O‘rnimdan turayotganimda boshim aylanib o‘tirib qoldim. Besh kun kecha-yu kunduz uxlamay, ushbu xotirani yozdim. Go‘yo besh kun qaytadan qamalib chiqdim. “Sarob “ hikoyasiga ham nuqta qo‘yayotganimda shu ahvolga tushgandim”-deb esga oladi.

Vatan, burchga cheksiz sadoqat, fidoyilik tuyg‘usi, ayniqsa, “Oftob oyim” hikoyasida betakror -marsiyadek mungli ayni paytda, madhiya kabi mardona va mag‘rur yangraydi. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” asaridagi “Oftob oyim “ hikoyasini o‘qish chog‘ida, har bir inson o‘zini tug‘ilib o‘sgan yurtini qanchalik qadrlashini bilib oladi. Har bir xalq, goh u o‘zbek bo‘lsin, goh yapon har kim o‘zining vatanini sevadi. Maqsud Shayxzoda aytganday :”Vatanni sevmog‘ni, yurt otasiga

sadoqatni yaponlardan o'rganish kerak. Bu asar orqali yozuvchi ham yaponlarni o'z yurtini qanchalik qadirlashlarini, yaxshi ko'rishlarini tasvirlagan. Yozuvchining qamoq lageridagi og'ir hayoti, u bilan u yerda qanchadan qancha mahbuslar qiynalayotgani, o'sha mahbuslar orasida yaponiyalik mahbuslar ham bor edi.

Ushbu asarda yozuvchi Sobiq Sovet Ittifoqi hududida asir sifatida yashagan yaponlar haqida hikoya qiladi. Said Ahmad bilan yaponiyalik Dyun ismli mahbus bilan do'stlashadi. O'sha paytlarda yaponiyaliklarni o'zlari tug'ilgan yurtga qaytarib yuborishlari haqida aytib qolishdi, bu gaplarda yaponiyalik mahbuslar hammasi xursand edi, lekin bir mahbusdan tashqari, uning ismi Sudze edi. Dyun o'z yurtiga qaytayotganida juda ham xursand edi, endi u o'lsa ham armoni yoqligini Said Ahmadga aytardi. Dyun shu o'tgan o'n bir yil ona yurti, tug'ilgan diyori - Yaponiya xayoli bilan yashadi. U Said Ahmadga shunday derdi.

-Xayriyat, qonim yurtimga to'kiladigan bo'ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan.

-Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, boshqalarday bearmon yuray deb niyat qilmaysanmi, ahmoq! - derdi yozuvchi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yaponiyaliklarda shunday odat bor. Ular samuray bo'lgani uchun dushmanga tirik asir tushmasligi kerak. Asir tushish xavfi tug'ilgandayoq o'zini o'ldirishlari kerak bo'ladi. Lekin asar qahromoni Dyun o'zini xarakiri qilishga ulgirmagan, shuning uchun u - Vatanimdan qon qarizdorman derdi. Bu asarni o'qigan har bir o'quvchi yaponiyaliklar haqidagi haqiqatini bilib olishadi. O'z vatanini sevishni mana shu yapon xalqidan o'rganishi mumkin. Kyoko Nakayama aytganday: "Bu hikoyada insonning tuyg'ulari va ichki kechinmalari chuqur hissiyot bilan aks ettirilgan, shuningdek, unda hozirgi kunga kelib unutilayotgan an'analar ham yoritilgan".

Asardagi "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasini o'qigan har bir o'quvchi entikmasdan, hayojonlanmasdan o'qishi qiyindir. Bu asarni yozuvchi o'zbek xalqlariga bag'ishlaydi. "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasining boshlanmasida Sobiq sho'ro tergovchilari qo'lida azob chekayotgan yurtdoshlarimga bag'ishlayman - deb boshlaydi. Bu hikoya boshlanmasi kurash maydonida kurash tushayotgan palvonlar bilan boshlanadi. Asar qahramoni Jalol palvon yetmish yoshlarga borgan, ellik yildan beri kurash tushadi, shu paytgacha kuragi yer ko'rmagan palvonlardan biri. Asardagi yana bir qahromon bu Jalol polvonning o'g'li Qo'chqorvoy. Mana shu Qo'chqorvoy tufayli ko'p odamlarning boshiga og'ir ishlar tushadi. Mana shu Qo'chqorvoy tufayli qishloqda obro'-e'tibor qozongan Jalol palvonning boshi egilishiga sababchi bo'ladi.

Bu asardagi azroil Qo'chqorvoy hisoblanadi. Hikoyani ham "Azroil o'tgan yo'llarda" deb nomlanishi shunga bog'liq. Shu Qo'chqorvoy yurgan yo'llarda Jalol palvon ham yurib o'g'lini qilgan ishlarida xabar topadi, bechora, beayb insonlarga qilgan ishlarini ko'rib o'g'lidan nafratlanadi. Jalol palvon Buxoro kasalxonasida bemorlardan Qo'chqor haqidagi xabarlardan xabar topadi. Bemorlar Qo'chqor haqidagi

shunday gaplarni aytadiki:-O'sha padar la'nant ko'p ishlar qilib ketdi.Butun bir shaharni boqsa yetadigan boylik olib ketdi,o'sha itning bolasi.

-So'kinmay gapir ,-dedi duduqlqnadigan bemor arang gapirib.

-So'kinaman,nega so'kmas ekanman !U ablahning otasi eshak,onasi mochaxar!

Jalol palvonning vujud-vujudiga minglab igna sanchilgandek bo'ladi.U dunyoga kelib hali bunaqa haqorat eshitmagan edi. Tishini tishiga qo'yib chiqadi.(1.162-bet).

Bu gaplarni eshitish o'zbek otasi uchun juda og'ir hisoblanadi.Har bir ota o'g'li voyaga yetganda menga tirkak bo'ladi, menga yelkadosh bo'ladi deb niyat qiladi.Hech bir ota menga lanat olib kelsin deb farzandini voyaga yetgazmaydi.

Jalol palvon yana Qo'chqor to'g'risida gapirib qolmasin, deb asli kamgap odam bo'lishiga qaramay, uzundan uzun gap boshlardi. Lekin har doim gap aylanib Qo'chqorvoy bilan tugardi.Mana yana gap aylanib Qo'chqor haqidagi gapga ulanib ketadi. Jalol palvon yotgan xonadagi barcha bemorlar mana shu Qo'chqorning ishlaridan aziyat chekkan insonlardir. Ushbu asarda Sobiq sho'ro davrida oddiygina xalq tergovchilar qo'lida qanchalik qiynalganligi tasvirlangan.Qo'chqor ham qiyinchiliksiz pul topaman deb qanchadan qancha odamlarni umriga zomin bo'lgan.Birovning barmog'idagi uzukni,yana kimningdir ziragini olib qo'yardi.Bu Qo'chqor yaramas faqatgina odamlarni narsasiga emas, hattoki ayollarini ham majburan o'ziniki qilgan.

Jalol palvon mehmonga borganda yana o'sha Qo'chqor haqida gap boshlanadi.

-Palvon aka, xotinimning barmog'ini ko'rib hayron bo'ldingiz-a ?Bu -o'sha padarla'nat Qo'chqor tergovchining ishi. Men uylanganimda onam rahmatli barmoqlaridagi uzukni chiqarib ,kelinga:"Bolam, bu uzukni katta buvam taqqanlar , u kishidan keyin men taqqanman, endi siz taqing", deb xotinimning o'rta barmog'iga taqib qo'ygan edilar.Uzukning ikkita moshdek olmos ko'zi bor edi.U paytda xotinim ozg'in,barmoqlari ham qalamdek ingichka edi.Ikki bola tuqqandan keyin et qo'yib, semirib ketdi.Barmoqlari ham yo'g'lanib qoldi.U shu uzukni qirq yildan ortiq taqdi.Ammo qo'ldan qo'ymadi.Tong'ichimni uylantirganimda, xotinim kelinning qo'lga shu uzukni taqib qo'ymoqchi bo'ldi.U ancha urindi, barmog'idan chiqarolmadi.Uzuk go'shtdor barmog'i terisi orasida qolib ketibdi.Men qamalganimdan keyin ham ablah Qo'chqor tergovchi uyni obis qipti.Xotinimning barmog'idagi uzukka ko'zi tushib, shuncha urinibdiki, chiqazaolmapti.Oxiri uzukni ombur bilan qisib bor kuchi bilan tortibdi.Uzuk barmoqning terisini, go'shtlarini sindirib chiqibdi.Barmoq bo'g'inlari uzilib ketibdi.Hozir ko'rdingiz-ku,bitta barmog'ida jon yo'q, nto'rta barmoq orasida lattaga o'xshab osilib qolgan. Kir yuvolmaydi, xamir qorolmaydi, igna ushlasa, joni yo'q barmoq xalaqit beradi.

Gap nimadan boshlansa, oxiri Qo'chqor bilan tugardi.Jalol palvon Buxoroga kelganiga pushaymonlar yedi. Ming o'lib, ming tirildi.(1.168-bet).

Bechora Jalol palvonning ko‘nglidagi og‘ir hislarni boshqalar qayerdan bilsin, ko‘nglidagi dardlarni qaydan bilsin. Palvon yana biron oy turishiga ham rozi edi. Ammo sheriklarining gaplari uning jon-jonidan o‘tib ketyapti. Ertalab turiboq bismillosga Qo‘chqorni “Padarla’nat”, deb so‘ishadi. Kechqurun yotishda ham o‘sha gap. Bu gaplarga qandoq chidaydi? “O‘sha ablahning padari menman, siz og‘izga olib bo‘lmaydigan uyat gaplar bilan so‘kayotgan onasi-mening xotinim”, deb aytolmasdi. (1.169-bet).

Bechora Jalol palvon uchun bu gaplar shunchalar qiyin gaplarki, hech bir ota o‘g‘li haqida bu gaplarni eshitishni xohlamaydi. Har bir o‘quvchi mana shu “Azroil o‘tgan yo‘larda” hikoyasini o‘qish chog‘ida ta’sirlanmasdan o‘qishi amrimaholdir. Undagi bo‘lgan voqealar, xalqimizga keltirgan zug‘mlar Qo‘chqor obrazi orqali tasvirlagan yozuvchi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamida ko‘proq xotiralar va sho‘rolar davridagi illatlarning ochilishiga e‘tibor qaratilgan, insonlarning ruhiy kechinmalari, hissiyotlari mahorat bilan bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Said Ahmad. “Qorako‘z majnun”. “Sano -standart” nashriyoti T.: 2016-yil.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent, Ma’naviyat, 2000. – 112 bet.
3. Normatov U. Istiqlol ilhomlari. Qarang: Qorako‘z Majnun. Hikoyalar. Qayta nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi. – Toshkent, “Sino-standart”, 2018. – 272-bet.

KIMYO FANINI ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QITISH METODIKASI.

Jumartova Latofat Ubaydullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan kimyoni o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'plab innovatsion yondashuvlar va metodlar hamda ularning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kimyo o'qitish metodikasi, interaktiv metodlar, miqdoriy tahlil qilish, vizual laboratoriya.

Axborot texnologiyalari - ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Kimyo fanini o'qitish metodikasi orqali o'quvchilarning ilmiy savodxonligini shakllantirish va ularni jadal rivojlanayotgan dunyoga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan kimyoni o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'plab innovatsion yondashuvlar mavjud. Ular bo'yicha batafsil ma'lumotlar berib o'tamiz.

Virtual laboratoriyalar integratsiyasi:

Zamonaviy axborot texnologiyalari virtual laboratoriyalarni yaratishga imkon beradi, o'quvchilarga eksperimentlar o'tkazish uchun real simulyatsiya muhitini taqdim etadi. Ushbu virtual laboratoriyalar kimyoviy reaksiyalarni o'rganish, miqdoriy tahlil qilish va molekulyar tuzilmalar va o'zaro ta'sirlar kabi murakkab tushunchalarni tushunishning xavfsiz va tejamkor usulini taklif qiladi.

Interaktiv multimedia tarkibi:

Interaktiv simulyatsiyalar, 3D molekulyar vizualizatsiya va video namoyishlar kabi multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarni samarali jalb qilishi va kimyoviy hodisalar haqidagi tushunchalarini oshirishi mumkin. Ushbu interfaol resurslar turli xil ta'lim uslublariga mos kelishi va o'quvchilarga an'anaviy usullar

orqali tushunish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan mavhum tushunchalarni tasavvur qilish imkonini beradi.

Onlayn hamkorlik platformalari:

Onlayn hamkorlik platformalari va ta'limni boshqarish tizimlarini birlashtirish o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni osonlashtirishi mumkin. Ushbu platformalar kimyo ta'limi uchun dinamik o'quv muhitini ta'minlab, interaktiv munozaralar, tengdoshga o'rganish va real vaqt rejimida fikr-mulohazalar uchun imkoniyatlar beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish uchun dasturiy ta'minot:

Zamonaviy axborot texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish uchun kuchli dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa o'quvchilarga haqiqiy ilmiy amaliyotlar bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ma'lumotlarni sharhlash, kimyoviy simulyatsiya va molekulyar modellashtirish uchun hisoblash vositalaridan foydalangan holda, o'quvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va eksperimental natijalarni tahlil qilishda amaliy tajribaga ega bo'lishlari mumkin.

Masofaviy ta'lim va virtual sinflar:

Masofaviy ta'lim yoki gibridd ta'lim modellari kontekstida zamonaviy axborot texnologiyalari virtual sinflar va masofaviy laboratoriya tajribalarini amalga oshirish imkonini beradi. Jonli translyatsiya, onlayn namoyishlar va laboratoriya jihozlariga masofadan kirish orqali o'quvchilar jismoniy joylashuvidan qat'i nazar, kimyo ta'limida faol ishtirok etishlari mumkin.

Baholash va moslashuvchan ta'lim tizimlari:

Moslashuvchan ta'lim tizimlari va raqamli baholash vositalarini o'z ichiga olgan holda, o'quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar va moslashtirilgan o'quv tajribasini taqdim etish mumkin. Ushbu texnologiyalar individual ta'lim taraqqiyotiga moslasha oladi, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlaydi va maqsadli yordamni taklif qiladi, natijada kimyo ta'limi samaradorligini oshiradi.

Xulosa:

Kimyo ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi uchun yangi yo'llarni ochadi. Virtual laboratoriyalar, multimediya kontenti, hamkorlik platformalari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va moslashtirilgan o'quv tizimlarini birlashtirib, o'qituvchilar kimyo o'qitishni boyitib, o'quvchilarga molekular va reaksiyalarning jozibador olamini innovatsion usullarda o'rganish imkoniyatini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Nishonov, Sh.Mamajonov, B.Xo`jayev «Kimyo o`qitish metodikasi» Toshkent, O`qituvchi 2002, 112 b.[1]

2. Asqarov I.R., To`xtaboyev N.X., G`ofurov K.G. 7-sinf uchun darslik. Toshkent . 2013
3. Asqarov I.R., To`xtaboyev N.X., G`ofurov K.G. 8-sinf uchun darslik. Toshkent. 2014
4. Asqarov I.R., To`xtaboyev N.X., G`ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2014
5. www.ziyonet.uz

TURLI BICHMIDAGI AYOLLAR JAKETI TAHLILI

Vohidjon Homidov Obidovich

*Farg'ona politexnika instituti Yengil Sanoat va To'qimachilik
fakulteti katta o'qituvchisi.*

Umarova Nigora uktamjon qizi

*Farg'ona politexnika instituti Yengil sanoat va to'qimachilik
fakulteti talabasi*

Muhammadjonova Shalola Abdusalom qizi

*Farg'ona politexnika instituti Yengil
sanoat va to'qimachilik fakulteti talabasi .*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ayollar jaketini turlari hamda hozirgi kunda qanday jaketlar urfdaligi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: kiyim, usti kiyim, kostyumbop gazlama, ayollar jaketi, paxta tolali, sport uslubidagi jaket.

Аннотация: В данной дипломной работе были проанализированы виды женских курток и какие куртки сегодня являются традиционными.

Ключевые слова: одежда, верхняя одежда, пиджак, куртка женская, хлопковое волокно, куртка спортивного фасона.

Abstract: In this thesis, the types of women's jackets and which jackets are traditional today were analyzed.

Key words: clothing, outerwear, jacket, women's jacket, cotton fiber, sports jacket.

Kiyim, kiyim-kechak deb badanni yopibturuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi, to'qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad avvalo tanani atrof-muhit ta'siri: issiq-sovuq, shamol, chang-to'zon, quyosh nurlari, yog'in va hokazodan asrashdir. Kiyim — inson tanasini tashqi muhit ta'siri va turli mexanik ta'sirlardan asraydigan vositalar to'plami; estetik vazifani bajaradi hamda jins, yosh, milliylik va boshqa xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Keng ma'noda "Kiyim tushunchasi bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal), qo'lqop va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Jaket - ayollar garderobidagi zamonaviy va qulay kiyimlardan biridir. U o'z egasining obrazini uyg'unlashtiradi, lekin shu bilan birga u qat'iy uslub sifatida ko'rinadi, shu sababli ofisda kiyish uchun ayni variant hisoblanadi. Jaketning bitta to'g'ri tanlangan modeli yordamida siz juda ko'p chiroyli obrazlarni yaratishingiz mumkin![2]

Jinsiy
materialdan
ayollar
jaketi



Katak
gazlamadan
ayollar
jaketi



Gulli gazlamadan
ayolla jiketi





Yuqori sifatli zamonaviy va chiroyli mato har qanday kiyimning muvofiqiyatli kalitidir. to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida jun gazlamalari alohida o'rin tutadi. Jun tolasidan to'qilgan matolar 100% jun va yarim jun kabi xillari bo'ladi, junli kiyim kechaklarning tashqi ko'rinishini yaxshilash maqsadida jun tarkibiga 6-10% gacha paxta ipi, visko'za, sun'iy ipak, shtapel tolasi aralashtirilgan gazlama ham jun gazlama jumlasiga kiritiladi. Yarim junli gazlamalar tarkibiga 85% gacha tabiiy yoki sun'iy jun bo'ladi. Men ham kurs loyihasida berilgan mavzu "Ayollar jaketi yangi model dizayini ishlab chiqish." mavzusi uchun yarim jun ya'ni kamvol gazlamasini tanladim bu gazlama yuqori va o'rta raqamli jun ipdan to'qiladi. Bu gazlama sirti tekis, tuksiz pishiq, yengil, changni o'ziga kam oladi, chang va iflosliklardan oson tozalanadi. Bu gazlamadan asosan jaket, kostyum, palto, shimlar tikiladi. Jaketlik materiallar ya'ni kamvol gazlamalar tipiga sidirg'a gazlamalar ya'ni bo'stondir bu gazlamalar tikish uchun 11-0-120 nomerli ignalar 40 nomerli g'altak iplar ishlatiladi. Bo'ston sof jun gazlama ikki qavatlik, 31,3 teksli, 1203 artikulda, eni 142 sm, gazlamaning vazni 340 gram [1]

Xulosa qilib aytganda, ushbu tezisni yozish davomida ayollar jaketi assortimenti bo'yicha tahlil qildim. Ayollar jaketi mavsumiy ustki kiyim hisoblanadi. Yengil ust kiyim bo'lib bahor kuz mavsumlarida ko'proq kiyiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-yanvar kunidagi a. "Murojaatnoma" si.
2. .X.Komilova, N.K.Hamroyeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. T, 2003 y.
3. I.N. Litvinova, Ya.A.Shaxova. Ayollar ust kiyimini tikish. Toshkent. «O'zbekiston» 1997 y.
4. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik tyexnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
5. . M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi.Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.
6. . M.K.Rasulova, M.A.Shukurova. Noviye texnologi v proizvodstve izdeliy legkoy promshlennosti. Tekst leksii. TITLP. 2003 g.
7. Ye.X.Myelikov i dr. Laboratornyy praktikum po tyexnologii shvyeyunyx

MAVZU: IBN SALOHNING ILMIY MEROSI

*Ko'kaldosh o'rta maxsus bilim yurti mudarrisi,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islomshunoslik va islom
sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"
kafedrasi 1-kurs magistranti
Jalolxonov Muzaffarxon Zokirjon o'g'li
e-mail: muzaffarxonjalolxonov2@gmail.com
tel: +998911147503*

Annotatsiya. Qur'oni karimdan so'ng eng haq va to'g'ri ko'rsatma – Rosululloh sollallahu alayhi va sallamning ko'rsatmalaridir. Shuning uchun ulamolar bu tavsiyalarni mukammal o'rganishga harakat qilganlar. Ibn Saloh Shahrizuriy ham hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biridir. U shofeiy mazhabi fiqhini muammal o'rganish bilan birga, hadis ilmiga doir ham ko'plab asarlar yozgan. U ilm yo'lida ko'plab safarlar, shayxlardan hadis eshitish, kitoblar ta'lif qilishga umrini baxsh etdi. U yashagan davr islom uchun eng og'ir kunlar bo'lsa-da, ilmdan chekinmadi. Ibn saloh o'zi olgan ilmlarni omonat o'laroq ummatga sof holda yetishi uchun asarlar yozish bilan bir qatorda, yetuk shogirdlar ham qoldirdi. U yozgan asarlar hozirda o'z fani doirsida dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar. Ibn Saloh, ulumulhadis, Irbil, shofeiy, solihiyaya madrasasi, Dimashq, Ravohiyaya madrasasi.

Hadis ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan va bu y o'lda umrini baxsh etgan olimlardan biri - Ibn Saloh Shahrizuriydir. U hijriy 577-yilda Iroqning Shahrizur viloyati yaqinidagi Sharaxon shahrida tug'ilgan. Uning to'liq ismi: Taqiyuddin Abu Amr Usmon ibn Saloh ibn Abdurrohman ibn Muso ibn Abu Nasr ash-Shofeiy ash-Shahrazuriy bo'lib, unga nisbatan otasining ismini aytish, ya'ni Ibn Saloh deb nomlash ulamolar orasida mashhurdir. Uchinchi bobosi – Abu Nasr va tug'ilgan shahri Shahrazurga suyanib, uni an-Nasriy ash-Shahrazuriy deb nisbatlaydilar.

Qur'oni Karimni tug'ilgan shahrida puxta yod oldi va fiqhni otasidan o'rgandi. Otasi – fiqh ilmida o'z o'rniga ega bo'lgan, shahrining ulug' shayxlaridan hisoblangan Saloh ibn Abdurrohman bo'lib, shofeiy mazhabining kibar ulamolaridan biri hisoblanadi. Saloh ibn Abdurrohman fiqhni Abu Sa'd ibn Abu Asrun al-Mavsiliydan, Abu Sa'd esa qozi Abu Ali al-Foriqiydan, u zot Abu Is'hoq ar-Roziydan, u kishi Imom Shofeiydan o'rgandilar. Imom Shofeiy esa fiqhda imom Molik orqali sahobalar, so'ngra Rosululloh sollallohu alayhi va sallamga bog'lanadi.

Ustozlari. Ibn Salohdagi ilmga bo'lgan qiziqish va iste'dodni payqagan otasi uni Mavsil shahriga olib bordi. U yerda Ibn Saloh dastlab Ibn as-Samiyn nomi bilan

mashhur – Abu Ja‘far Ubaydulloh ibn Ahmad al-Varroq (523-588) dan hadis o‘rgandi. Undan so‘ng Nasrulloh ibn Salama ibn Solim, Abul Fazl Muhammad al-Maqdisiy, Abdulmuhsin at-Tusiy va boshqa kibor ulamolardan tahsil oldi. Shundan so‘ng Ibn Saloh o‘z davrining imomi, Nizomiya madrasasi mudarrisi alloma Abu Homid Muhammad ibn Yunus al-Irbiliy al-Mavsiliy ash-Shofeydan ilm oldi. Ibn Saloh Mavsilda yashab, ustozi Abu Homid Shofeyga Nizomiya madrasasida yordam berdi. Bundan tashqari u yerda shayxining ukasi, aqida va falsafa fanlarida yetuk olim – Kamol ibn Yunus bilan ham bog‘landi.

Mavsildagi barakali tahsildan so‘ng Ibn Saloh ilm talabida yana safarga chiqdi va Xuroson, Marv, Nishopur, Qazvin, Hamadon kabi o‘z davrining ilm markazlariga borib, u yerdagi ulamolardan tahsil oldi. Uning bu safari Mavsildagi shayxi – Abu Homid Mavsiliy vafotidan avval sodir bo‘ldi. Nishopurda Muayyid at-Tusiy va Mansur ibn Abdulmun‘im al-Faroviyan hadis ilmida Sahih al-Buxoriy, Sahih Muslim kitoblaridan saboq oldi. Marvda Abul Muzaffar Sam‘oniy (537-617) dan Sahih Buxoriy, Musnad Dorimiyni, Qazvinda Imom Abulqosim Abdulkarim Qazviniy Rofey (623-v.) dan ta‘lim oldi. Imom Navaviy, Zahabiy, Tojiddin Subkiy Imom Rofeyning tarjimai holida Ibn Salohning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Ajam yurtlarida unga (Imom Rofey) o‘xshashini ko‘rmadim, deb o‘ylayman”. Hamadon shahrida Abul Fazl Abdurrahmon Hamadoniy (609-v.) dan tahsil oldi.

So‘ngra xalifalik poytaxti Bag‘dodga borib, Abu Ahmad Abdulvahhob al-Bag‘dodiy (517-607), Abu Hafs Umar al-Bag‘dodiy (516-607), Abulfath al-Karxiy kabi ulug‘ shayxlardan Sunani Abu Dovud, Sunani Termiziy va boshqa kitoblardan saboq oldi. Bu haqida o‘zining “Ulumul hadis” kitobida keltirgan.

Ibn Salohning tug‘ilishidan 10 yil ilgari Nuriddin Mahmud ibn Zankiy Shomda xutbadan Fotimiylar ismini olib tashlab, buni Misrdagi noibi - Salohiddin Ayyubiyga ham buyurdi. Shom va Misrda xutbada abbosiylar ismini qaytardi. 569- yilda Nuriddin Zankiy vafot etgach, davlat tepasiga Salohiddin Ayyubiy keldi va salibchilarga jihodni davom ettirdi. 583- yilda rajab oyining 27- kunida, Ibn Saloh tug‘ilishidan 5 yil o‘tgach Quddus ozod qilindi. Misr va Shomdagi salibchilar bilan janglar 589-Salohiddin Ayyubiy vafotigacha davom etdi. Uning vafotidan so‘ng shahzodalar o‘rtasida taxt uchun kurash avj olib, fitna kuchaydi. Natijada davlat tepasiga Salohiddinning ukasi Sayfuddin keldi va jihod bayrog‘ini 515- yil, ya‘ni vafotiga qadar tutib turdi. Bundan so‘ng 616- yilda mo‘g‘ullar Buxoro va Xorazmga hujum qilib, Xuroson va Iroqqacha bo‘lgan hududni egalladilar. So‘ngra Qazvin va Ozarbayjonga burilib, Irbilga ham hujum qildilar. 618-yilda Irbil va Marvni ham egalladilar. Dunyo mo‘g‘ullar tufayli qaynardi.

Bu paytda Ibn Saloh va otasi Shom diyorida edilar. Shomga ko‘chish 612-yildan avval ayon bo‘lgandi. Chunki, u yerda Ibn Salohning shayxlaridan biri Hofiz Abdulqodir Rahoviy vafot etgandi. Ular garchi ilm talabida u yerga ko‘chgan bo‘lsa-

da, Irbilga qaytadigan barcha yo'llar mo'g'ullar tomonidan to'silgan edi. Movarounnahrda Iroq hududigacha bo'lgan islom diyorlari mo'g'ullar qo'l ostida edi. Shu sabab u Dimashqda turib, shayxlardan ta'lim olishda davom etdi. Dimashqda u Abulqosim ibn Harastoni (520-614), Al-Faxr ibn Asokir (550-614), Abu Muhammad Abdurrohman Dimashqiy (541-620) kabi ulamolardan ilm oldi.

Shomda Ibn Saloh manfaatli hayot o'tkazdi. U Baytul Maqdisdagi Salohiyya madrasasida mudarris sifatida yashadi. Ibn Saloh Dimashqda mudarrislik bilan birga, e'tiborli lavozimlarda ham faoliyat olib bordi, xususan davlat boshliqlari uni turli ilm dargohlarida rahbarlik lavozimlariga tayinladilar. Shu bilan birga u dars berish, kitob ta'lif qilish va dunyoning turli tomonlaridan keladigan ilm toliblariga ham ilm berardi. Ibn Saloh umrining oxirigacha mana shunday ilm, taqvo, zohidlik talabida to'vafotiga qadar tinim bilmadi. Shom sultoni Sharofuddin Muso ibn Sayfuddin Ayyubiy shaharni himoyasidan o'jiz qolib, fransuzlarga qal'a devorlarini ochib bergach, Ibn Saloh Dimiyot (Misrdagi shahar) ga yo'l oldi. Shu tariqa u Dimashqdan uzoqlashdi. Otasi esa Halabda, Asadiyya madrasasida mudarris sifatida umrining oxiriga qadar, ya'ni 618-yilgacha yashadi. 643-yil Robiy-ul oxir oyi, 25-payshanba kumida islom ummati yana bir ilm yulduzidan ayrildi. Ilmni shu qadar azizlagan, unga borini bergan, ilmni hayotining ajralmas qismiga aylantirgan olimni Alloh ta'lo ham shu qadar aziz qildi: Odamlar janozaga shu qadar ko'p keldiki, ikki marta janoza o'qishga to'g'ri keldi. Bu – ilmga bo'lgan muhabbatning ham olim, ham xalq tomonidan ko'rsatilgan yorqin dalili edi.

Ibn Salohning yozgan asarlari:

Hadis ilmida:

1. Sharhu Sahihi Muslim. Bu kitob Ayo Sofiya kutubxonasida (182/1) quyidagi sarlavha ostida ham saqlanadi : *صيانة صحيح مسلم من الخلل والغط و حمايته من الإسقاط والسقط*
2. الأحاديث الكلية التي عليها مدار الدين
3. Amoliy.
4. حديث الرحمة المسلسل بالأولية
5. Abu Is'hoq ibn Qarqulning Mutolaatul anvor kitobiga hoshiyalar va ta'liqotlar
6. Almuqaddima fi ulumul hadis

Fiqh ilmida:

1. نكت على المذهب لأبي إسحاق الشيرازي
Bu kitob Shofeiyy mazhabidagi far'iy masalalar haqida bo'lib, uni Ibn Qozi Shabha o'zining "Tabaqot" ida va Imom Muhyiddin Navaviy "Tahzib" kitobida zikr qilib o'tgan.
2. مشكل الوسيط لأبي حامد الغزالي
Bu ham furuotlar to'g'risida. Ibn Xollikon "Musonnofot ibn Saloh" da zikr qilib o'tgan.
3. صلة الناسك ي صفة المناسكف

Bu asar haqida Abu Abdulloh as-Subtiy, Ibn Qozi Shabha o‘z asarlarida zikr qilganlar. Ibn Xalikon quyidagicha ta‘riflagan: “Ibn Saloh bu asarini haj amallari haqida yozgan va unda insonlar ko‘p ehtiyoj sezadigan masalalarni jamlagan va u mabsut edi”.

4. الفتاوى

Ibn salohning ba‘zi shogirdlari bir mujalladga uning fatvolarini jamlagan. Buni Tojiddin Subkiy “Taboqot” da zikr qilgan. U 1344-h. yilda Qohirada alohida boblarga ajratilgan holda nashr qilingan.

5. كتاب أدب المفتي والمستفتي

Hoji Xalifa bu haqida zikr qilgan.

Rijol ilmida:

1. طبقات الفقهاء الشافعية

Imom Navaviy bu haqida quyidagicha aytgan: “Ibn Salohning Taboqotini o‘rgandim va xulosa qildimki, u juda nafis, o‘xshashi yo‘q. Faqihlarni tanishda undan boshqasi behojat qilolmaydi.

2. المنتخب من المذهب في ذكر شيوخ المذهب للمطوعي

Dimashqdagi Zohiriyya kutubxonasi mundarijasi.

3. فوائد الرحلة

Hoji Xalifa aytadi: Bu kitob ilm navlaridan kamyoblarini o‘z ichiga olgan va unda Xurosonga qilgan safarlarini aytib o‘tgan.

4. أفراد العلم

Bu kitobdan Shams Saxoviy “Fathul mug‘iys” da naql qilgan.

5. التحرير

Shogirdlari. Ibn Saloh islom hazorasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan shogirdlar qoldirgan. Ular taqriban hijriy 7-asrning avvalgi choragida yashab o‘tgan. Bizga ma‘lum bo‘lgan vafoti eng muqaddamlaridan biri – Abu Marvon Muhammad ibn Ahmad al-Ishbiliy (635-654). Ibn Salohning qo‘lida ko‘plab imomlar faqih bo‘lib yetishgan. Jumladan, Kamol Is‘hoq ibn Ahmad al-Ma‘riy (650-v.). U Ravvohiya madrasasida Ibn Salohga yordam bergan va uning fatvolarini jamlagan. Shamsiddin Abu Muhammad Abdurrohman Dimashqiy (654-v.), u ustozidan so‘ng Ravvohiya madrasasida mudarrislik qilgan. Abu Hafs Umar ibn As‘ad Shofeyy, Kamol Salor ibn Umar Dimashqiy. Bu zotlar Imom Navaviyning ulug‘ ustozlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari yana ko‘plab yetuk olimlar Ibn Salohning im maktabidan yetishib chiqqanlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imom Zahabiy. Tazkirotul huffoz. – Qohira: Dorul kitob, 1953. 4- j. – 1430 – b.

2. Ibn Xollikon. Vafoyotul a‘yon va anbau abnaiz zamon. - Bayrut: Dorussodir, 1980. 3-j. 243-b.
3. Tojiddin Subkiy. Tabaqotush shofeiyyatil kubro. - Qohira: Doru ihyou kutubul arobiyya. 1918. 5-j. 65-b.

40 RAZMERDA QIZLAR KO'YLGINI TIKISH TEXNALOGIYASINI ISHLAB CHIQISH.

Vohidjon Homidov Obidovich

*Farg'ona politexnika instituti Yengil Sanoat va
To'qimachilik fakulteti katta o'qituvchisi.*

Isaqova Nozima Xorunboy qizi

*Farg'ona politexnika instituti Yengil
sanoat va to'qimachilik fakulteti talabasi.*

Inomjonova Shoiri O'ktamjon qizi

*Farg'ona politexnika instituti Yengil
sanoat va to'qimachilik fakulteti talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada 40 razmerdagi ayollar kiyimlarni tikish usullar, mato tanlash, kerka bo'ladidan jihozlar va ishlar ishlanmasi haqida ilmiy nazariy bilimlar berilgan.

Kalit so'zlar: asbest, jun, Sintetika, asetat, BRUCE Q 5, model, gazlama, trikataj.

Аннотация: В данной научной статье даны научно-теоретические знания о способах пошива женской одежды 40 размера, подборе ткани, хлопковой технике и разработке работы.

Ключевые слова: асбест, шерсть, синтетика, ацетат, BRUCE Q 5, модель, марля, трикатаж.

Abstract: This scientific article provides scientific-theoretical knowledge about the methods of sewing women's clothes of size 40, selection of gauze, cotton technique and work design.

Key words: asbestos, wool, synthetics, acetate, BRUCE Q 5, model, gauze, knitwear.

Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki chizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki chizimda amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zig'ir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nychilik, mo'ynado'zlik, poyab-zal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqalar. sohalarda ishlatiladi. [1] Yengil sanoat 20dan ortiq

kichik tarmoqlarni o'z ichiga olgan murakkab tarmoq bo'lib,ularni uchta asosiy guruxga birlashtirish mumkin:

1. To'qmachilik ,shu jumladan trikataj, zig'ir, paxta,jun, shoyi shuningdek, zig'ir junni birlamchi qayta ishlash, to'qilgan materiallar ishlab chiqarish, to'r trikataj sanoati, kigizchilik sanoati, to'qmachilik galanteriya ishlab chiqarishi va boshqalar;
2. Tikuvchilik;
3. Teri, mo'yna, poyabzal;



To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun strategic ahamiyatga ega. O'zining yirik xomashyo bazasi, yengil sanoatning mehnat zichligi, qo'shni mamlakatlarda nisbatan katta bozor mavjudligi O'zbekistonda to'qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishni salohiyatli o'sish omillaridan biriga aylantiradi. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish, mamlakatimizda kuchli to'qimachilik va tikuvchilik tarmog'ini shakllantirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.[3]

So'nggi yillarda mamlakatimiz to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati oldida kelgusida iqtisodiy salohiyatni yuzaga chiqarish va mamlakatning qiyosiy ustunliklarini ro'yobga chiqarishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator strategic muhim vazifalar turibdi: mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, shu jumladan yetishtirilgan mahsulotlarning hosildorligini oshirish. paxta xomashyosi, yarim tayyor mahsulotlar uchun eksport xomashyosini qisqartirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishni ko'paytirish, sotish bozorlarini kengaytirish, shuningdek, yengil sanoat tarmoqlarining, ayniqsa, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etishda salohiyatini hisobga olgan holda qo'shimcha ish o'rinlari yaratish. To'qimachilik sanoati iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekani hisobga olinib, davlatimiz tomonidan unga e'tibor kuchaytirilib, ishlab chiqaruvchilarga har tomonlama ko'mak ko'rsatilmoqda. So'nggi yillarda, xususan, korxonalar samarali qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan.

Bichiq detallar ro'yxati

Jadval 1.1

№	Detallar nomi	Detallar eskizi va tanda yo'nalishi	Bichiq detallarining qirqimlari nomi	Bichiq detallarini soni
1	2	3	4	5

1	Old bo'lak			1
2	Ort bo'lak			1

40 razmerda qizlar ko'yligiga material tanlash va asoslash.

Hozirgi vaqtda sanoat kiyim-kechak uchun juda ko'p turli xil matolarni taklif qiladi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, tuzilishga va xususiyatlarga ega. Matolarning xossalari ularning tarkibiga kiradigan tolalarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Bugungi kunda tikuv materiallari tabiiy va kimyoviy tolalar asosida ishlab chiqarilmoqda. tabiiy matolar va ularni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tolalar o'simlik, hayvon va mineral (asbest) kelib chiqishi mumkin. Birinchi guruhga (o'simlik to'qimalariga) paxta tolasi, zig'ir poyasi, kanop, jut, gorse va boshqalardan tayyorlanganlar kiradi. Tabiiy hayvon to'qimalari guruhiga jun, shuningdek, qo'y, echki, quyon, vikunya, mo'ylovdan tayyorlanganlar kiradi. lamalar, tuyalar, alpakalar. Hayvonlardan olingan tolalarning mustaqil guruhi tabiiy ipak tolasi bo'lib, ipak qurti turtillarının maxsus bezlaridan muzlatilgan sirdir. kimyoviy tola shartli ravishda 2 guruhga bo'linadi: sun'iy va sintetik. Birinchisi mineral, o'simlik yoki hayvonlardan olingan xom ashyoni maxsus qayta ishlash orqali olinadi. Sintetik tola gaz, neft, ko'mir va boshqalar bo'lishi mumkin bo'lgan dastlabki moddalarni sintez qilish usuli bilan ishlab chiqariladi. Sun'iy matolardan eng mashhurlari viskoza (tsellyuloza polimeri eritmasi asosida olinadi), asetat (tsellyuloza asetati eritmasini qayta ishlash orqali tayyorlanadi), shuningdek, mis-ammiakdir. Kimyoviy sintetik gazlamalar neylon, tayyorlanadi. 40 razmerda qizlar ko'yligini tikish texnologiyasini ishlab chiqish mavzusi uchun chit gazlamasi tarkibiga kiruvchi matoni tanlandi. 40 razmerda qizlar ko'yligiga asbob uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash tanlangan modelim uchun zamonaviy korxonalarda ishlab chiqarilgan tikuv

mashinalaridan tanladim. Bunday zamonaviy korxonalaridan biri Yaponiyada joylashgan bo'lib, ushbu korxonada zamonaviy tikuv jihozlaridan "BRUCE Q 5" sanoat tikuv mashinalari ishlab chiqariladi. Tanlangan model Ayollar ko'ylagini tikish uchun jahon miqyosida keng qo'llanilayotgan BRUCE Q 5 tikuv mashinalarini tanlab oldim. Ushbu ko'ylakni biriktirma, bostirma va bukib tikish operatsiyalari uchun BRUCE Q 5 universal tikuv mashinasini tanlab oldim. BRUCE Q 5 universal tikuv mashinasi bir ipli mokili bo'lib, mokisi gorizontal holatda joylashgan. Bu mashina tekis tikuvchilar uchun juda ham qo'l keladi. Ushbu BRUCE Q 5 tikuv mashinasining aylanishlar chastotasi 5500 ayl/min tashkil etadi. Baxyasining yirikligi esa 0 dan 5 mm gacha o'zgartirish mumkin.[3]



4-rasm. BRUCE Q 5 universal tikuv masinasi.

BRUCE Q 5 universal tikuv mashinasi bir ipli mokili bo'lib, mokisi gorizontal holatda joylashgan. Bu mashina tekis tikuvchilar uchun juda ham qo'l keladi. Ushbu BRUCE Q 5 tikuv mashinasining aylanishlar chastotasi 5500 ayl/min tashkil etadi. Baxyasining yirikligi esa 0 dan 5 mm gacha o'zgartirish mumkin.[2]

Xulosa shuki 40 razmerdagi qizlar ko'ylagini tikishda qanday mato, texnikalar, ticklish uslublarni qisman berib o'tdim. Dastlab mavzuga oid modellardan zamonaviy, qulay, yumshoq, erkin harakat qilishga mo'ljallangan 3 ta model tanlab oldim va asoslab, tarif berdi. Hamda asosiy modelimga mos gazlama tanladim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-yanvar kunidagi a. "Murojaatnoma"si.
2. X.Komilova, N.K.Hamroyeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. T, 2003 y.
3. I.N. Litvinova, Ya.A.Shaxova. Ayollar ust kiyimini tikish. Toshkent. «O'zbekiston» 1997y.
4. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik tyexnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
5. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi.Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.
6. M.K.Rasulova, M.A.Shukurova. Noviye texnologi v proizvodstve izdeliy legkoy promshlennosti. Tekst leksii. TITLP. 2003 g.

UDK:638.152

ASALARI OILASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI RIVOJLANISHI VA DAVOLASH TEXNALOGIYASI

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti
Zooinjineriya fakulteti Asalarichilik yo'nalishi talabasi*

O'ralova Jayrona O'tkir qizi
jayronaotkirovna1234@gmail.com

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti
Zooinjineriya fakulteti Asalarichilik yo'nalishi talabasi*

Rustamova Shaxzodaxon Alisher qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asalari oilasida kuzatiladigan yuqumli kasalliklari haqida so'z boradi: nozema, amyoba, yevropa va amerika chirish kasalligi, septisemiya va viruslar, nafas yo'llari orqali o'tadigan akarapis kanasi septisemiya bakteriyasi, ular keltiradigan zararlari, kasallikni oilaga yuqishi hamda asalari oilasini qanday usullarda davolash chora tadbirlari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Asalari, nozema, amyoba, yuqumli, yuqumsiz, kasallik, zararkunanda, dizenfeksiya, vosita, tetrasiklen, sulfantrol, shakar sharbati, tetroleonamitsin, oksotetrosiklen, bakteriya, virus.

Kirish. Asalari oilasidagi kasalliklarni davolash asalarichilik soxasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu orqali asalarilarda uchraydigan turli xil kasalliklarni kelib chiqishi, davolash va kasallikni oldini olish choralari tadbirlarini ishlab chiqariladi va amalyotga tatbiq etiladi.

Davolash natijasida asalarilar kasallik tufayli nobud bo'lishi, ko'rsatkichi kamayadi va asal yetishtiruvchi xo'jaliklarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan katta iqtisodiy zararlarni oldini olish asalarilarni kasalliklarini davolash hozirgi kunda dunyo miqyosida ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda asalarilar kasalliklarini o'rganish va davolash choralari topishda asalarichilik sohasida ko'plab izlanishlar mavjud. Bugungi kunda asalari kasalliklarini davolash to'ri yo'lga qo'yilmagan. Buning natijada asal yetishtiruvchi xo'jaliklarida turli xildagi kasalliklarining kelib chiqishi va uning avj olishi boshqa xo'jaliklarga tarqalib ketishi, asalarilarning kata qismini nobud bo'lishi, oqibatida esa xo'jaliklarining katta iqtisodiy zarar ko'rishi kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va arilar tanasiga o'tishi har xil bo'ladi. Ayrim kasalliklarni qo'zg'atuvchi bakteriyalar arilar tanasiga ichaklari orqali o'tadi, ya'ni bular nozema, amyoba, yevropa va amerika chirish kasalligi qo'zg'atuvchisi hamda septisemiya va viruslar hamda nafas yo'llari orqali

o'tadiganlarga akarapis kanasi, septisemiya bakteriyasini ko'rish mumkin. Tez o'tadigan kasalliklar 2-4 kun, surunkali kasalliklar esa 2-4 hafta o'tgach rivojlanadi [5].

Kasallikni kelib chiqishi va belgilari: Inkubatsion davrda bu kasallik 3-7 kun davom etadi. Kasallangan qurtcha tanasidagi bo'g'im g'ildirakchalarini yo'qotib, kulrang ranga kiradi. So'ngra sut aralashgan coffe rangiga yaqin ko'rinshga aylanadi. Kasallik boshlangandan so'ng taxminan 4 haftadan keyin kasallangan qurtcha to'q jigarrang tusga kiradi va to'qimalari sochila boshlaydi [2]. Agarda inchani ochib bakteriyalok tayoqchani chirib yotgan qurtchaga tekkizsangiz, ingichka joyi ipga o'xshash 10-15 smga cho'zilib duradgorlar shirachiga o'xshash yoqimsiz hid chiqaradi. Oradan 1 oy o'tgach chirigan qurtcha qotadi va po'stloqqa o'xshab incha devotiga yopishib qoladi va ularni asalarilar tozalay olmaydi natijada yuqumli kasalliklar inchada qolib ko'paya boshlaydi [2].

Kasallikni tarqalishi: Kasallikni chaqiruvchi bakteriya va viruslar kasallangan oiladan sog'lom oilalarga asal, gulchang, suv orqali o'tadi [2]. Ko'pchilik hollarda boshqa hashorotlar yani sariq ari, qo'ng'izlar, mum kuyasi kapalagi, qurtchasi hamda kanasi orqali yuqadi. Asalari organizimini ko'pincha yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchi bakteriya va viruslarga qarshi kurashuvchi immunitet xususiyatiga egadir [5]. Imunitetlar asosan tug'ma va hayoti davomida ortirilgan turlariga bo'linadi. Tug'ma immunitetlar organizm tashkil bo'lishi bilan yuzaga keladi. Avlodlarga tug'ma shakilda morfologik ko'rsatkichlari bilan o'tadi. Hayoti davomida hosil bo'lgan immunitet yuqumli kasalliklar bilan kasallanish oqibatida yuzaga keldi [3].

Kasallikni davolash texnologiyasi: Asalari oilasini davolashda asosan ozuqasiga bir qisim shakarga bir qisim suv quyulib shakar sharbati tayyorlanadi. Shakar sharbati 30 gradusda sovutilgach -1 litr shakar sharbatiga yot, tetrasiklen neometsilen eritmasini, oksotetrasiklinga qo'shiladi [5]. Tetrasiklendandan 400 ml yot natrisulfazol natriydan 1 gram, sulfantroidan 2 gram tetroleoometsin 1 gram qo'shiladi. Tayyor bo'gan dorini shakar sharbati solinadigan idishda berish lozim [2]. Davolashda ozuqani har 5-7 kundan kasallik tuzalgungacha berish tavsiya etiladi [5]. Shu sababli kasallik tarqalishini oldini olish uchun kasallangan oilalarni ajratib maxsus karantinga oilish zarur. Shundagina kasallangan oiladan sog'lom oilaga kasallik yuqmaydi. Iqtisodiy zarari kamroq bo'ladi hamda oila mahsuldorligi saqlanib qolinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017- yil noyabr oyida PQ -2237 sonli qarori"
2. Asalari kasalliklari va zararkunandalari - T.: "Sharq" 2013-96 b. Isomammedov A. Niqadamboev X.
3. Asalarichilik Asoslari o'quv qo'llanmasi Toshkent 2021.

4. B.A.Qaxramonov , F.E. Safarova , S.I. Isomuxammedov, X.A. Danayev ,X.B . Ergashevlar bu sohada olib borilgan ishlari.
5. Azimova D.U 2022-yi “Asalarilarda uchraydigan nozematoz kasalligini oldini olishda pirobiotiklarni samarasini o’rganish”.

НАХШАБ НУМИЗМАТИКАСИ

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat
muzeyi ilmiy hodimi Xusainova Muhabbat*

Илк ўрта асрларда Суд конфедерациясида Нахшабнинг ҳам уз ўрни ва улуши булган. Хитой манбаларида Нахшаб Кештаркибида булганлигини англашилади. Нахшаб хукмдорлари кадимдан уз номларидан танга зарб этганликлари маълум. Хитойлик муаллифлар Нахшабнинг маъмурий чегараларини белгилашда хатоликка йул куйишган, яни Нахшаб

Эрон билан чегарадош деб келтирилади. Балки, бу уринда йилнома муаллифлари бир муддат Судга Амударё оркали чегарадош булган Сосонийлар давлатини назарда тутишгандир. Кашкадарё худудидан 1953 йилда Карши шаҳридан 3 км шарқда жойлашган милодий III-IV асрларга оид бугунги Чимкургон сув омбори атрофидаги Пирмат боботепа, Куштепа, Шуртепа ва Овултепа ёдгорликларидан топилган тангалар орасида "шерни мағлуб этаётган хукмдор" тасвири туширилган тангаларнинг ушбу хукмдорлик тарихи билан боғликлиги хусусида карашлар мавжуд.

Сугдшунос В.А. Лившицнинг таъкидлашича, О.И. Смирнованинг ушбу тангалардаги судий ёзувни "кушоний, кушонга оид" талкин этиши С.К. Кабановнинг Кашкадарё воҳасида сунгги кушонларнинг манзилгохлари булганлиги тугрисидаги тахминни илгари суришига сабаб булган эди. Дастлаб хионийлар, сунгра кидарий ва эфта-лийлар таркибига сингиб кетган кушонлар манзилгохларининг Суднинг Нахшаб хукмдорлиги худудида булганлиги этимоли ҳам йук эмас. Лекин маълумот бахсли ва исбот талаб. Бундан ташкари тангалардаги ёзувининг "кушоний" ёки "кушонга оид" деб талкин килиниши Жанубий Суддаги сунгги Кушон хукмдорларига таклидан танга зарб килинганлигидан дарак бериши мумкин.

Тангада айнан кимнинг тасвири акс этирилганлигини тадқиқотчилар Куйидагича изохлашга харакаткиладилар: танга туркларнинг эфталийлар устидан галабага эришгунига қадар (563-567) зарб килинган булса, у холда тангадаги хукмдор эфталий, акс холда эса тангадаги шахс Турк хоконлигининг Нахшабдаги вассалларидан бирининг тасвири булиши мумкин. Лекин юкорида кушонлар билан болик холда келтирилган маълумотлар тангадаги хукмдорнинг хоконликнинг Нахшабдалдорни омяс балки, ундан олдинги балки, ундан олдинги даврларга оид эканлиги хақида фикр юритишга имкон беради.

Ушбу тангаларни тахлил қилган С.К. Кабановнинг фикрича, тангалардаги хукмдор эфталий булиб, у тожиз тасвирланган. Бу эса уша даврдаги Нахшаб хукмдорлари эфталийлар юкори сулоласига мансуб булмаган деган тахминни

илгари суришга асос беради. Бу эса, мазкур даврда Нахшабда махаллий хукмдорлар хукмронлик килганлигидан далолат беради.

Тангадаги судий ("узун") ёзуви бази таджикотчиларнинг фикрича, хукмдор унвонига нисбатан эмас, балки шахсий исмга хосдир. Агарда бу ёзувни шахсий исм деб ҳисоблайдиган булсак, У ҳолда тангада Нахшабни бошқарган ноиб эканлиги борасидаги фикр янада, Милодий VII-VIII асрнинг бошларида зарб килинган Нахшаб тангаларининг маълум қисмининг бир томонида "хукмдор" тасвири, бир томонида эса, "от" тасвири ва унинг атрофида судий жумлалар ("кут (сохиби) хукмдор") акс этган тангалар ташкил этишини куриш мумкин.

Нахшаб тангаларининг бошка гуруҳида эса бир томонида от тасвири ва ёзув "илохий хукмдор", иккинчи томонида эса шаклли тама ва унинг устида ёзув рин олган. Мазкур ёзувни таджикотчилар 'Sknok - askandak шаклида уқишган. О.И.Смирнова бу сузни дастлаб "шикатлик", "Хшикатга тегишли" деб талкин қилган. Таджикотчиларнинг фикрича, араб манбаларида 730-йилларда Насаф испахбоди сифатида тилга олинган ал-Ашканднинг исми мазкур тангада акс этган. Ал-Ашканд Турк ҳоконининг содик кишилари сифати-да тилга олиниб, у Насаф "испахбод"и деб келтирилади. Форсча мув "сипох" "сипахбод"сузлари "кушинбошлини", "харбий кумондон" маъноларини англатади. "Сипахбод" ёки "испахбод" унвони Сугддан ташқарида ҳам қулланилганлиги малум. Масалан, Эроннинг вилояти Табаристон хукмдорларининг унвони "испахбод"лар булиб, улар Испахбадон шаҳрида яшаганлар. Аммо Эрон ва Нахшаб испахбодлари орасида алоқалар булганлиги ёки аксинча эканлиги маълум эмас.

Яна бир масала шуки, Нахшабда ҳам бошқарув тепасида Кешдаги каби харбийлар (ахурпатлар) испахбодлар турган. Эҳтимол, конфедерация ихшидлари уз мамлакатларининг чегараларини кучайтириш ва барқарор ушлаб туриш учун харбийлар бошқарувини кучайтиргандирлар.

Табарий берган маълумотларга Нахшабда булганлиги ҳақидаги тахминлар бор. Натижада Нахшабнинг бошқарув маркази Ерқургондан жануброққа (хоз. Шулуқтепа) кучади ва янги сулола вакиллари бу ердан туриб воҳани бошқара бошлайдилар. Археолог олим Р.Сулаймонов фикрича, мазкур сулола вакилларининг келиб чиқиши туркий булган. Ушбу сулола узларидан олдинги махаллий сулоладан фарқли тангалар зарб қила бошлашган ва улар-да узларига хос аънаналар акс эттириган.

Хулоса сифатида қуйидаги фикр ва мулоҳазаларни илгари суриш мумкин: Сугд конфедерациясининг Тохаристон билан чегара хукмдорлиги ҳисобланган Нахшаб конфедерацияси вужудга келган дастлабки даврлардан бошлаб унинг таркибида ривожланган.

САНЪАТГА БАХШИДА ЭТИГАН УМР...

*Наманган вилоят тарихи ва маданияти
давлат музейи илмий ходими:
Хилола Юлдашева.*

Халқ амалий санъати азал-азалдан ривожланган бўлиб, бугунги кунда ҳам ўз ўрнига эга. Унинг ўзига хос турлари мавжуд бўлиб фаолият юритган ва бугунги кунда фаолият олиб бораётган узтозлар ва шогирдлар талайгина. Авлоддан-авлодга ўзларидаги бор сир-синоатни шогирдларига ўргатиб келишган. Ана шндай узтозларга шогирд бўлиб, бугунги кунда бир қанча шогирдларга узтозлик қилаётган, набираларнинг бобоси Наманганлик ўймакор уста Муйдинов Неъматжон бободир.

Уста Наманган вилоятининг Курашхона кўчасида 1949 йил 15 сентябрида хунармандлар оиласида туғилган. Наманган шаҳридаги 13-мактабда тахсил олиб, оталари Абдуллаев Муйдинбой отадан устачилик сирларини ўрганган. Наққошлик ва ўймакорлик сирларини Кўконлик уста Қодиржон Хайдаров томонидан пухта эгаллаб, 1972 йил ташкил топган Наманган шаҳар Пионер ва ўқувчилар уйини Амалий санъат тўғараги раҳбари лавозимида иш фаолиятини бошлаган.

-“Уста Неъматжон кўплаб қадимий шаҳарларда бўлган, санъатни услуб ўймаларини кўриб, наққошлик санъатидан таъсирланиб фақат Наманганда XVII асрда усталар томонидан Богдодий усулидаги геометрик ўйма нақшларни ёғочга, ганчга ўйиб ишлаган холос. 1976 йилга қадар ҳеч бир уста бу ўйма нақш сирини билмас ва қўллаган эди. Менда Богдодий усулдаги геометрик ўйма нақшни қўллаш иштиёқи туғилди дейди уста Неъматжон бобо”.

Неъматжон Муйдинов шогирдлари билан 1979-1980 йилларда “Темир йўлчилар” оромгоҳининг эшик ва устунлари, 1983 йилда Вилоят кутубхонасига рассомчилик корхонаси орқали миллий ўймакорлик эшиклари, 1986-1987 йилларда Учқўрғон тумани Санаториясига миллий ўймакорлик эшик ва устунлари, 1989-1990 йилларда Учқўрғон тумани Қўғай қишлоғидаги оталар чойхонасига ислимий услубда ясалган эшик ва устунлар, Мустақиллик йилларида 1991-1992 йилларда Боборахим Мащраб боғида гумбаз шаклида қурилган уй музейининг 3 та 2 табақали эшик ва устунлари миллий ўймакорлик усулда, ҳамда “Алишер Навоий” театрининг 6 донга 2 табақали эшикларини ўғиллари Насимжон, Расулжон ва шогирдлари билан биргаликда тайёрлаб беришган. 1998-1999 йилларда Самарқанддаги “Имом Ал- Бухорий” мақбарасига миллий ўймакорлик устунлари тайёрлаб беришди.

Устанинг моҳир кўллари билан яратилган гўзал санъат асарлари республикамизнинг турли гўшаларида инсониятга завқ-шафқ улашиб биноларга кўрк бағишлаб турибди. Устанинг асарларини томоша қилар экансиз беихтиёр томошабин тилидан **“Отанга раҳмат”!!!** деган бу сўзлар отилиб чиқади. Бу устанинг ўз асарига қалб-қўрини, муҳаббатини, юрагидан бир чимдим кўшиб яратганидан далолатдир.

Бунга мисол қилиб биргина Наманган вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи Санъат кўргазмалари залидан ўрин олган қовокдан тайёрланган вазалар, қутилар, лавх, саккиз қиррали курсилар ва бошқаларни кўрсатишимиз мумкин.

Бундай санъат асарларни томоша қилган ҳар бир ёш авлод қалбида ватанга муҳаббат, устозлар меҳнатига ҳурмат-эҳтиром уйғонади, санъатга қизиқиши ортади. Бўш вақтини беҳуда ўтказмай, устозларга ҳавас қилиб, турли тўғарақларга қатнай бошлайди. Бу эса санъатнинг тарбиявий аҳамияти эга эканлигидан далолатдир.

AXSIKENT ZILZILASI YOXUD BIR ASAR TARIXI

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati
davlat muzeyi San'at bo'limi mudiri:*

D.To'xtaboyeva

Vatanimiz tuprog'ida minglab tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularning qa'rida asosan arxitektura qoldiqlari-paxsa, xom g'isht, pishiq g'isht, sopol va toshlardan iborat inshoot va binolar shaklu-shamoyilini topgan ro'zg'or asboblari, turli xil bezaklar, sopol idishlar uchraydi. Zeb ichida ziynati deganlaridek, ardoqlangan qadimgi zargarlik, misgarlik, kandakorlik, kulolchilik asarlari, to'qima shoxi atlaslar, so'zanalar gilamlar, o'ymakor bezakli xar xil buyumlarni hozir muzeylarda ko'rish mumkin. Yuksak san'at asari bo'lgan ko'plab ashyolar muzeylar zahirasida saqlanmoqda. Necha-necha ajdodlarimizdan meros badiiy, madaniy, me'moriy boyliklarni namoyish etib, ko'pchilikning nazaridan o'tkazish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Dovrug'i dunyoga ko'hna shaharlarimizdan biri Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan Axsikentdir. Bu shahar ming yillar bilan bo'ylashgan bo'lib, ne-ne siru-sinoatlarni, voqea-xodisalarni bag'rida saqlab kelmoqda.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining arxeologiya ko'rgazmalar zalidan o'rin olgan 16253 inventarli "Axsikent zilzilasi" deb nomlanuvchi san'at asari ko'xna shaharning ayanchli fojeasidan darak beradi.

Asar 100x134 sm o'lchamda bo'lib, rassom Kos'yanenko tomonidan yaratilgan. Asarni tomosha qilar ekansiz undagi daxshatli manzarani ko'rib aqlingiz shoshadi. To'satdan yuz bergan zilzila aholini karaxt xolatga solib qo'ygani shundoq ko'rinib turibdi. Sarosimaga tushgan shahar axolisi dahshatdan oyoq yalang, ko'zlari qo'rquvdan katta-katta ochilgan, qo'lida norasida go'dagi bilan boshi oqqan tomon qochayotgani, go'yoki qulayotgan devorlarni pana qila oladigandek qo'llarini boshlari uzra ko'tarib olgan, ayrimlari esa binolarning qulayotgani devorlari ostida qolgani, chngdan atrofni ko'rib bo'lmas xolat tasvirlangan.

Inson va tabiat o'rtasidagi ziddiyat, to'g'rirog'i inson va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlar xalokat belgisidir. Faqat moddiy jihatdan emas, ma'naviy jihatdan ham g'ariblashishdir. Rassom Kas'yenenkoning "Axsikent zilzilasi" asari ana shunday rux bilan yo'g'rilgan. Bu asar musavvirning kundalik va tabiiy ko'nikmalari natijasi deb qarash yaramaydi, balki ularni xalq taqdiri, uning dard alamlarini yo'qotishga hamdardlik mahsuli desak to'g'rirog' bo'ladi. Insonning taqdiriga ular boshiga tushgan ofatga shunchaki achinish bilan qarab bo'lmaydi. Aksincha musavvirning hamdardligi, qadimdan zamin iztiroblariga daxldorlik, xalq va Vatan qayg'usiga sheriklik tuyg'usini ifoda etadi.

Rassomning “Axsikent zilzilasi” assari qadimiy badiiy an’analarga asoslanadi. Biroq bu Sharq san’ati tajribalarini, miniatyura an’analarini to’g’ridan-to’g’ri joriy etish emas. Ranglarning qurulishi, xissiy va ramziy belgilar tizimi xam xuddi shunday. Zero, u Van-Gog, Pikasso singari ulkan san’atkorlarga ko’r-ko’rona taqlid etuvchilar kabi, kimgadir o’xshashga xarakat qilmaydi, lekin o’tmishda bo’lgan bu fojeani o’z shaxsiy qarashlari asosida atroflicha qayta ishlaydi.

Bejiz emaski, qadimd-qadimdan rassomlar o’z ijodlari bilan mo’jiza yaratishga qodir, ular xuddi sexrgarlar kabi odamlarning qalbini davolay oladilar degan afsona va rivoyatlarr yashab keladi. “Axsikent zilzilasi” tasvriy san’at asari oldida muzeyga keluvchi ziyoratchilarning to’planib, uzoq qolib ketishlarini sababi ham shunday bo’lsa kerak.

Temuriylar asos solgan Aкси shahri 1620 yilda ro’y bergan favqulodda kuchli zilzila oqibatida vayron bo’lgan. Kosonsoylik mashhur geograf va tabiatshunos olim Said Muhammad Tohir ibn Abdul Qosim tomonidan 1640 yilda yozilgan “Ajoyib at taboqat” (Mintaqalar ajoyibotlari) asarida yozilishicha, muallif zilzila oqibatlarini o’z ko’zlari bilan ko’rgan. Mazkur tarixiy manbaada Axsikentda ro’y bergan zilzila shunday tasvirlanadi: hijriy 1030 yilda Aкси viloyatida shunday zilzila bo’ldiki, Sirdaryodan chayqalib chiqqan suv daryo chetidagi dalalarni bosib ketdi, suv bilan chiqarib tashlangan baliqlar qirg’oqda tipirchilab so’ngra o’ldi. Katta daraxtlar ildizi bilan yulini, yerga qulab tushdi, imoratlar qattiq va tez-tez sodir bo’lib turgan zilziladan vayron bo’lib, ko’p odamlar qulab tushgan imoratlar ostida qolib halok bo’ldilar. Ko’plab odamlarning oyoq-qo’llari sindi, hayvonlar qo’rqinchdan dalalarga qarab qochdi. 6 oygacha zilzila to’xtamadi. Masalan: birinchi kuni zilzila 70 martagachaa sodir bo’lib turdi. Shunisi qiziqki, eng qattiq zilzila Aкси qo’rg’onining ichida bo’lib, atrof qishloqlarda uncha qattiq bo’lmadi. Shahardan bir forsax (17 chaqirim) yerda hech qanday tovush eshitilmadi.”

Ana shunday vayronagarchilikdan keyin Aкси qal’a shahri qayta tiklanmadi. Zilziladan omon qolgan barcha aholi chor atrofga ko’chib ketdi. Aholining ma’lum bir qismi, asosan ziyolilar, hunarmandlar, ilm-fan sohiblari Namanganga kelib o’rnashib, keyinchalik bu joyni shahar maqomiga aylanishiga sababchi bo’lishgan edi. Shunday qilib, 1640 yildan boshlab fan, madaniyat, savdo-sotiq sohalari rivojlangan Namangan shahri tarkib topdi.

Aкси qal’asi oldinlari urushlar, kelishmovchiliklar sabab bir necha marotaba vayrona bo’lgan, lekin aholi shaharni tark etmagan. 1640 yilgi zilzila natijasida qal’ani aholi tark etishga majbur bo’ladi.

Qal’adan faqatgina baland past tepaliklar qolgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ko’rsatmalari bilan bu yerlar sayyohlar oqib keladigan, turizm yo’nlashlaridan biri bo’lmoqda.

VAQTNING QADRI

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy hodimi
Qosimjonova Sadoqat*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda Vaqtni qadrini bilgan odam havoiiy-nafsidan tiyilaolishi haqida soʻz ketadi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk odam boʻlishga haqligigi, har birimizni isrof vasvasasi har on, har daqiqa, har qadamda taʼqib qilinishi, isrofdan saqlanish lozimligini bir nafas ham unitmasligimiz keng nomoyon etilgan.

Annotation

This article talks about how a person who knows the value of time can refrain from lust. It is well known that a person who knows the value of time has the right to be a great person, that the temptation to waste is pursued every moment, every minute, at every step, and that we must not forget even a breath that we should avoid waste.

Kalit soʻzlari: vaqt, inson, isrof, yoshlik, asr, ilm, hunar, orzu, inson, soat, jamiyat.

Key words: time, human, waste, youth, century, science, craft, dream, man, clock, society.

Oʻtgan vaqtning ortga qaytmasligini va oʻrniga almashmasligini bilmaydigan odam yoʻq. Otilgan oʻq iziga qaymagani kabi umr ham iziga qaytmaydi. Boy berilgan vaqtni oʻrnini toʻldirib, hotirjam yashayotgan insonni kim koʻrgan? Koʻp keksalarni uchramiz, ular yoshlik davrlarining yana bir bora qaytishini orzu qiladilar. Lekin bu amalga oshmaydigan orzu, bu faqat fantastik asarlarda uchraydi. Shoir aytadiki: Koshki qaytsaydi ortga agar bir kunga yoshlik, Unga aytardim boshga nelar soldi keksalik.

Oʻtgan asrning ohirrogʻida onamning yetmish besh yoshga toʻlganligini bayram qilgandik. Oʻshanda sanʼatkorlarni taklif qilib, rosa hursandchilik qilganimiz esimda. Eslashimga sabab shuki, raqs tushayotgan aka-uka, opa-singil qarindoshlarning hammasi huddi piyoz toʻgʻragan odamdek koʻzlari yoshga toʻlgan edi. Men bu fenomenni tushinmay garang edim. Endi bilsam oʻtayotgan vaqt ortga qaytmasligi mumkin onamni hayot shamlari oʻchayotgani, inson ega boʻlgan narsalarining eng nafisi vaqt ekanligi edi ha, u hayotga hoh bu shaxs hoh bu jamiyat boʻlsin asl sarmoya hisoblanadi.

Bir kecha kunduzda odamga 24 soat vaqt bor. Shunda 8 soati uyquga ajratilsa demak, 16 soatga oʻzimiz xukmronmiz. Bu vaqtni qanday "sovurish" oʻz

ixtiyorimizda "sovorish" so'ziga atayin urg'u berdik. Chunki, ayrim odamlar ko'p vaqtlarini sovradilar. Bir nonni yarmini yeb, yarmini tashlab yuborsangiz – isrof. Bu qilg'ingizni ko'rgan bazi odamlar tanbex beradi, bazilari sizdan nafratlanadi, to'g'rimi? Ho'sh, vaqtchi? Vaqtning isrofi bormi?

Bir eslaylik uylarimizda elektr chirog'ini keraksiz paytda o'chirib qo'yishni unitamiz, yoki erinamiz. Televizorni brov ko'rmasada ishlab turaveradi. Suvni ham bekordan bekorga oqizib qo'yamiz. Yarim litrli choynakga choy damlash uchun uch litrli choygumni gazga qo'yamiz, undan tashqari gazni o'chirib yoqishga erinib pasaytirib qo'ya qolamiz. Gaz soatlab yonib yotadi. Bazan choygum erib ham ketadi-a? Oziq ovqatlarchi? Bir kishi "qotgan non, achigan ovqat isrof bo'lmaydi, molga beriladi" –deydi. Ha shunday hollor bor. Biroq molga berilmaydi, axlatga tashlanayotgan non va taomlar ozmi? Ikkinchidan, non va ovqat inson uchun berilgan ne'mat! Mol u qo'ying nasibasi boshqa.

Atrofimizdagi qaysi ne'matga qaramaylik isrof bolayotganini ko'ramiz. Bularni moddiy boylik isrofi desak, biri uni unitishimiz mumkin bo'lmagan yana bir isrof bor. Bu vaqt isrofidir. Vaqtning isrofi-umrning isrofi, demak. Umr behuda sarflanib bo'ldimi, demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshirolmabdi. Odamlar uchun, jamiyat uchun foyda bermabdi. Vaqtning isrofi-mevasiz daraxt kabi umr kechirishdir. Kishini bir ilimning yoki hunarni o'rganib so'ng boshqa ishlar bilan shug'illanib yurishi ana shu isrofga kiradi. Menga bir odamni maqtab: "Ishda ziyrak odam, beshinchi qavatga nechta zina bosib tushganicha biladi", deyishdi. Men esa ajablandim, zinaning nechtaligini bilish shartmi? Shunga isrof bo'lgan zehni va hotirasini foydaliroq narsaga sarf qilsa bo'lmasmikan? Bu narsani jinoyatga doir tekshiruv o'tkazivchi bilishi zarurdir. Lekin mehmonga kelgan odamning "uyingizga 150 ta zinani bosib ko'tarildim" deyishidan ma'no bormi? Yoki "ishimga yarasha ehtirom qiling", demoqchimi? Undan ko'ra yuqoriga ko'tarilganiga tasbeh aytib savobini mezbonga bag'ishlagani durusroq emasmi?

Yaxshi ishlarni qilishga shoshilish kerak. Shoshilish-fazilat, shoshqoloqlik-illatdir. Bu fazilatni egallashda vaqtni qadriga yeta olgan olimlar hayotidan o'rnak olsa arziydi. Bunday odamlar o'zlarini turgan mavqeyidan yana ham go'zalroq darajaga intiladilar. Ish jihatdan ularning bugungi kechasidan, ertasi bugunidan afzalroq bo'lar edi. Ular vaqtlarini manfa'atli ilm tehsil qilishga yoki boshqalarga foyda keltirishga ishlatishlaridan tashqari, qisqa muddatni ham behuda sarf etishdan qizg'onishar edi. Toki o'zlari sezmay qolib, umirlari bo'sh ishlarga sarf bo'lib, gard-u g'uborga, ko'pikga aylanib qolmasin. Fursatni g'aniymat bilgan odam vaqtdan unimli foydalana oladi. Vaqtni qadrini bilgan odam havoiy-nafsidan tiyila oladi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk odam bo'lishga haqlidir.

Har birimizni isrof vasvasasi har on, har daqiqa, har qadamda ta'qib qildi. Demak, isrofdan saqlanish lozimligini bir nafas ham unitmasligimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulamolar nazdida vaqting qadri
2. Vaqat qadri
3. Bebaho vaqt qadri

ХАДИС ИЛМИНИНГ АМИРИ.

*Наманган вилоят тарихи ва маданияти
давлат музейи илмий ходими:*

Гўзал Валиева

Бухорий ҳижрий 194 йил шаввал ойининг 13 куни ҳозирги ҳисобда 810 йил 20 июлда таваллуд топди. Шу кундан эътиборан ислом олами ўзгача рух, ўзгача тароват билан яшай бошлади. Шу шаҳар Бухорои Шариф деб атала бошлади. Унинг фарзандларини эса Бухороийлар деб тилга ола бошладилар. Бу инсон “Ҳадис илмининг амири” деб ном олган Имом ал Бухорий эди. Ул зотнинг тўлиқ исм шарифлари Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ибн Иброҳим ибн ал Муғийра ибн Бардазбек ал-Жуафий ал-Бухорийдир. У кишининг туғилган саналарини аниқ кўрсатишимизга сабаб, буюк муҳаддиснинг оталари ўз даврининг олим, фозил кишиларидан бўлган ўглининг туғилган кунини ўз қўли билан ёзиб, замондош тарихчилар эътиборига етказган. Буюк муҳаддис отадан ёш қолади ва асосан онаси қўлида тарбия топади. Ёшлигида ақл-идрокли, ўткир зеҳли ва яхши хотирага эга бўлган ал-Бухорий барча илоҳий ва дунёвий илмларни чуқур ўрганишга киришади, тезда уломолар назарига тушади. Айниқса ҳадис илмини чуқур ўрганишга киришади. Тарихий манбаларда келтирилишича, у 10 ёшидан бошлаб ўз юртидаги ровийлардан эшитган ҳадисларни, жумладан Абдуллоҳ ибн ал-Муборак ва Вакий каби олимларнинг ҳадисларини мутола қилиб ёдлаган, устози Шайх Дохийий билан ҳадис ривоятчилари ҳақидаги баҳсларда қатнашган. Имом ал-Бухорийнинг илм фан, ҳадис илми борасидаги хизматлари аҳамиятини чуқурроқ идрок қилиш учун, бу илм тарихига назар ташлаймиз. Хижрий еттинчи асрнинг биринчи ярмида нозил бўлган Қуръони карим ислом дини таълимотида бош манба ҳисобланади. Шу билан бирга давр жиҳатдан қисқа муддатда юзага келган бу ажойиб ёдгорлик қанчалик катта маданий ва тарихий аҳамиятга эга бўлмасин, мусулмон дунёсининг ижтимоий, ҳуқуқий ва ахлоқий томонларига оид жамики масалаларнинг ҳаммасини ҳам тўла-тўқис қамраб ола олмаган. Шу сабабдан ҳам ибратли зот пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳисаломнинг ҳаётлик чоғларида айтган сўзлари, қилган ишлари, йўл-йўриқлари ва кўрсатмалари, панду ўғитлари, пайғамбар ҳадислари ёки суннатлари ҳисобланиб, ислом таълимотида Қуръондан кейин иккинчи мўътабар манба ҳисобланади.

Шунга биноан барча мусулмон шахси турмуш ва фаолиятида, айниқса бирор мушкул вазиятга дуч келган пайтда пайғамбар суннатларига амал қилган ҳолда иш тутишни ўзининг муқаддас бурчи ва вазифаси ҳисобланган.

Бунинг исботини барча улуғ ҳаёт тарзида ҳам, ўз салтанати қонун-қоидаларини ислом дини ва ҳазрати Муҳаммаднинг йўл-йўриқлари асосида тузган Амир Темур фаолиятида ҳам кўриш мумкин. Ҳадисларни тарқатиш ва ёйишда пайғамбар алайҳиссаломнинг ўзлари айтган, шунингдек, у кишининг фикр-мулоҳазалари, панду-насихатлари, кўрсатмалари ҳақида яқин қариндош-уруғлари, саҳобалари ва сафдошлари қолдирган ҳадислар олдинига оғзаки ҳолда эл орасида тарқалиб юрган, кейинчалик келажак авлодга мерос қолдириш ҳаракати кенг кўламда авж олиб кетди. Пайғамбар ҳадисларини тўплаш, уларни шарҳлаш, тарғиб қилиш билан шуғулланган олимлар муҳаддислар деб аталган.

Ҳадисшунос уламолар (муҳаддислар) ўртасида ҳадисларнинг тўғрилиги, уларнинг ишончли манба ва исбодларга асосланган бўлишига эътибор бериш анча илгари бошланган. Чунки чала-чулпа, сохта ҳадисларнинг пайдо бўлиши, пайғамбаримиз каломларини суистеъмол қилиниши ислом илми ва тарбиясида анча қийинчиликлар туғдирган. Шундай пайтларда улар қайта-қайта текширилиб олимларнинг машаққатли меҳнати натижасида асл мазмуни тикланиб, элга тақдим этилган. Ҳадис илми билан астойдил шуғулланган олимлар қаерда ўзларига маълум бўлмаган бирорта янги ҳадис борлигини эшитиб қолсалар, масофанинг узоқ-яқин бўлишидан қатъий назар, машаққатлар чекиб бўлса ҳам у жойга бориб ўша ҳадисни билган киши ёки ровийнинг ўз оғзидан эшитиб ёзиб олишга ҳаракат қилган. Ҳадисларни ишончли манбаларга асосланиб илмий асосда тартибга солиш борасида кўп олимлар жонбозлик кўрсатдилар. 8-асрнинг ўрталаридан бошлаб ҳадислар илми билан кейинги икки-уч аср давомида 400 дан ортиқ муаллифлар шуғулланганлар. 9-асрга келиб эса, кўплаб муҳаддисларнинг саъй ҳаракати билан ҳадислар бобларга ва тоифаларга бўлиниб, тўғри ва ишончилилари алоҳида ажратилиб, алоҳида-алоҳида тўпламларга киритилди. Шунинг учун ҳам бу асар ҳадис илми тарихида олтин давр ҳисобланади. Бутун ислом дунёсида энг нуфузли манбалар деб тан олинган олтига энг ишончли ҳадислар тўпламининг муаллифлари ҳам асосан манашу асрда яшаб ижод қилганлар. Биз номини ҳурмат билан зикр этаётган улуғ муҳаддиснинг бири эди. У имом Муслим ибн ал-Ҳажжож (206-261 хижрий, 819-871 мелодий йиллар), Абу Исо Муҳаммад ибн Исо Ат-Термизий (209-279, 824-892), Имом Абу Довуд Сулаймон Сижистоний (202-275, 817-880), Имом Аҳмад Ан-Насоий (215-303, 830-915), Имом Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Язид ибн Можжа (209-273, 824-886) каби сиймолар билан елкама-елка ижод қилди.

825 йили 16 яшар ал-Бухорий онаси ва акаси Аҳмад билан Ҳижозга қараб йўл олади. Муқаддас шаҳарлар Макка ва Мадинани зиёрат қилиб олти йил Ҳижозда яшаб, ҳадис илмидан астойдил таълим олади. Шундан сўнг ўз

билмини янада ошириш мақсадида Дамашк, Қоҳира, Басра, Куфа, Боғдод каби шаҳарларда яшаб, у жойлардаги машҳур олимлардан ҳадис билан бир қаторда фикх илмидан ҳам таълим олади, йирик олимлар даврасида илмий баҳслар, мунозараларда қатнашиб, илм толибларига дарс ҳам беради. Имом ал-Бухорий ҳаётининг кўп қисми хорижий элларда мусофирчиликда ўтиб, илм талабида у Шарқнинг кўпгина шаҳарларида бир неча марта бўлади. У сафар чоғида ҳам бир шаҳарда муқим турганда ҳам илмини ошириш борасида тинимсиз ишлар, тўплаган ҳадисларини оққа кўчирар эди. Ҳадис илмига ўз умри ва меҳнатини бағишлаган олим унинг равнақи учун қийинчилик ва муҳтожликларни енгишга ҳаракат қилди. Муаллифнинг ёзишича Боғдодда истиқомат қилган пайтда кўпинча ойнанинг нурида ижод қилар, қоронғи кечалардагина шам ёриғида ёзарди. Нишопурлик ал-Ҳакимнинг (1015 йилда вафот этган) ёзишича ал-Бухорий устозларининг ёши 90 атрофида бўлган У кўпгина муҳаддисларга устозлик қилган. Исҳоқ ибн Муҳаммад Ар Ромодий, Абдуллоҳ ибн Муҳаммад ал-Маснадий, Муҳаммад ибн Халаф ибн Қутайба, Иброҳим ал-Ҳарбий, Абу Исо ат-Термизий, Муҳаммад ибн Наср ал-Марвазий, Муслим ибн ал-Ҳажжож каби олимлар унинг раҳбарлигида етук даражага эришганлар. Термизлик машҳур муҳаддис Абу Исо ат-Термизий ал-Бухорийга ҳам шогирд ҳам сафдош, ҳам юртдош ҳисобланади. Ал-Бухорий умрининг охири беш йил (863-868) Нишопурда яшаб, мадрасада ҳадис илмидан сабоқ берган. Ўша пайтда Нишопур мусулмон Шарқидаги энг йирик илмий марказлардан бирига айланганлиги сабабли кўп машҳур олимлар шу шаҳарда тўпланган эди. Ал-Бухорийнинг Ат-Термизий билан учрашуви ҳам Нишопурда юз беради. Диёримиздан чиққан икки машҳур муҳаддис анча муддат ижодий ҳамкорлик қилади. Улар ўртасида қизғин илмий баҳслар, ижодий мулоқатлар бўлиб ўтади. Ат-Термизийнинг ёзишича у ўз асарлари учун кўп маълумотларни Ал-Бухорийдан олган Шу билан бирга ал-Бухорий ҳам ат-Термизийнинг билимини юқори баҳолаган, қўллаб қувватлаган. Буюк ватандошимизнинг номи бутун ислом дунёсида самимий меҳр-муҳаббат, катта ҳурмат-эътибор билан тилга олинади. Шарқнинг турли бурчақларида имом ал-Бухорийнинг номини эшитмаган бирор кимса, унинг илми заковати етмаган бирор жой бўлмаса керак. Тақдир тақазоси билан бир вақтлар Шарқу Ғарб мамлакатларига бориб қолиб, у жойларда муқим яшаётган ватандошларимиз Бухорийнинг юртдошлари деб аталиб, уларга нисбатан иззат-икром билан мумолада бўладилар. Мусулмон дунёсининг барча мадрасаю долулфунунларида ал-Бухорийнинг ўлмас асарлари пайғамбар алайҳиссалом суннатлари бўйича асосий дарслик қўлланма-дастурамал ҳисобланади. Давлат ва жамоат арбоблари, дин пешволари, уламолар ал-Бухорий асарларидан ҳар бир қадамда истифода қилиб, унга таяниб иш

тутадилар. 1974-йилда Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси ташаббуси билан бутун ислом дунёси вакиллари иштирокида алломанинг 1200 йиллик юбилейлари нишонланган эди. Унинг шоҳ асарлари ҳисобланмиш “Ал-Жомий ас-сахийх” ва “Ал адаб ал-муфрад” китоблари Тошкентда қайтадан нашр қилиниши ал-Бухорий меросини ўрганишда катта аҳамиятга эга бўлди. Тошкентдаги олий диний маҳаднинг Имом ал-Бухорий номи билан аталиши бундан ўн икки аср муқаддам илм-фан йўлида беқиёс катта хизмат қилган буюк олимга чуқур ҳурмат-эътиборнинг рамзидир. Алломанинг Хартанг қишлоғида жойлашган салобатли мақбараси энг обод ва кўркем қадамжолардан бири сифатида ардоқланиб, ислом аҳли ва барча меҳмонлар учун табаррук зиёратгоҳ сифатида машҳурдир.

МУЛЛА БОЗОР ОХУНД ЁДГОРЛИГИ

*Наманган вилояти тарихи ва маданияти
давлат музейи катта илмий ходими*

Валиева Ҳадияхон

Наманган шаҳрининг Лаббайтога даҳаси, Курашхона мавзеи Намангансой соҳилида жойлашган Мулла Бозор Охунд ёдгорлиги мажмуаси халқимизнинг тафарруқ масканларидан биридир.

XVII асрнинг йирик мутасаввуфларидан бири олим ва шайх Мулла Бозор Охунднинг тўлиқ исми Хожа Убайдуллоҳ ибн Султон Муҳаммад Бобур Қорахон Мулла Бозор Охунддир. Ул зот XVI аср охири (санаси номаълум) Наманган шаҳрида таваллуд топган. Бошланғич таълимни уйда, кейинги босқични Наманган мадрасаларида олган. Илмга ташналик уни Туркистоннинг илм-фан маркази бўлмиш Бухорога олиб келган. Бухорода донишманд олим Мирзо Баҳодир Бухорий билан танишди, ундан таълим олди. Устозини пир, ўзини мурид ҳисоблаб, узоқ йиллар олимнинг хизматида юрди. Мирзо Баҳодирдан иршод хатини (пирнинг ёрлиғини) олгач, Ўрта ва Яқин Шарқ мамлакатлари бўйлаб саёҳат қилди. Қошғарнинг Хўтан, Ёрканд шаҳарларида бўлди. У ерда Ҳидоятulloҳ Офоқ Хўжа билан танишди. Наманганга қайтгач, қолган умрини имомлик ва мударрисликка, кишиларни тўғри йўлга солишдек шарафли, машаққатли юмушга сарф этди. Мулла Бозор Охунд ўз даврининг фикҳ, ҳадис, тарих, география, илми ҳисоб, фароиз, адабиёт, руҳиятшунослик ва бошқа билимларни яхши эгаллаган йирик мутафаккир эди. У туркий, арабий ва форсийда ижод қилган шоир ҳамдир. Ул зот оташнафас шоир Бобораҳим Машрабга илк сабоқ берган, унинг шоир бўлиб етишишига катта ҳисса қўшган ва уни ягона Аллоҳга эътиқод, фоний дунё ҳавасларига кенгил қўймаслик руҳида тарбиялаган меҳрибон устоз эди. Мулла Бозор Охунд 1668 йил Наманганда вафот этган.

Мамлакатимиз истиқлолга эришиш арафасида, 1990 йилда маҳаллий аҳоли ҳашар йўли билан Мулла Бозор Охунд мажмуаси қурилишини бошлаб юборди. Бироқ, иқтисодий танглик туфайли бу қурилиш ниҳоясига етмай қолди. Муқаддам бу ерда мавжуд бўлган мадраса ва мақбара XX асрнинг 30-йилларида бузиб юборилган эди. 1993 йилда меъморий мажмуани қайта тиклаш тўғрисида қарор қабул қилинди. Ўша йилнинг 25 декабрида мажмуа асосий дарвоза қисмига қозиқ қоқилди. Қурилиш ишлари 1994 йилнинг 18 майида тугатилди. Уни Наманган бош меъмори Абдужаббор Абдуғаффоров бошчилигидаги ёш, иқтидорли меъмор Одилжон Қодиров амалга оширди. Мажмуа қурилишида Уста

Фозил Намангонийнинг фарзанди Уста Турғунбой Фозилов ҳамда Уста Неъматулла Қўчқоровлар етакчилигида энг малакали курувчилар иштирок этдилар. Ушбу меъморий ёдгорлик Наманган вилояти ҳокимининг 2006 йил 5 майдаги 200-сонли қарори билан маҳаллий тоифадаги маданий мерос объекти сифатида давлат муҳофазасига олинган.

Мулла Бозор Охунд ёдгорлик мажмуаси 3 қисмдан иборат:

Асосий кириш дарвозаси пишиқ ғиштдан масжидга кириш жойида қурилган. Уч гумбазли, ўртадаги гумбаз каттароқ бўлиб, пастки қисми дарвоза учун мўлжалланган. Дарвозанинг икки томонида мезана шаклидаги баланд куббадор устунлар жойлашган. Бошқа икки гумбаз ости 3,5×3,5 метрли хужралардан иборат. Хужраларнинг давоми сифатида хоналар қурилган (9×3,5 метрли).

Жомеъ масжиднинг асосий катта хона-хонақоҳи ертўлали, пишиқ ғишт ва темир-бетон панелдан қурилган. Ўлчами 30×24 метр. Сатҳи 720 квадрат метр. Уч томони айвон. Уст унлар ва пештоқи миллий безаклар бериб пишиқ ғиштдан тикланган. Ўлчами 36×6 метр ва 24×6 метр, сатҳи 576 квадрат метр. Асосий дарвозадан киришда қибла томонда айвонга туташ ҳолда 16 метрли мезана-минора пишиқ ғиштдан безакли қилиб тикланган, "Аллоҳ, Муҳаммад" деган ёзувлари бор. Масжид 3 минг намозхонга мўлжалланган.

Мулла Бозор Охунд мақбарасида олим дафн этилган. Асосининг ўқ чизиғи 6 метр, умумий баландлиги 24 метр. Беш қиррали кўпбурчак шаклида аввал 8 метр ва кейин етти қиррали кўпбурчак шаклида призма қилиб қурилган. Устига доира шаклидаги қисм ва гумбаз барпо этилган. Мақбара кўриниши ва тузилиши исломдаги шариат, тариқат қонунларини рамзий тарзда ифода этади. Мақбаранинг дастлабки беш қиррали қисми исломдаги 5 амални, кейинги 7 қиррали қисми имондаги 7 шартни, доира шаклидаги 40 та қирра 40 фарзни ифодалайди. Бу қисмга "Бисмиллаҳир раҳманир роҳийм, Аллоҳ" деб ёзилган. Мақбара қурилишида пишиқ ғишт, темир-бетон, сопол кошинлар, ёғоч эшик ва панжаралардан фойдаланилган.



Намангандаги Мулла Бозор Охунд биноси



API GATEWAY(AG) MIKROSERVISLAR TO'PLAMIDAGI IMKONIYATLARI

G.Rayimjonov
Erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. Hozirgi kunda mikroservislar va klient-server arxitekturasi, kompleks tizimlarni shakllantirish, yaxshilash va rivojlantirishda keng qo'llaniladigan arxitekturalar hisoblanadi. Arxitekturalarni tanlashda, dasturlar va tizimlarning afzalliklarini va talablarini tushunish va aniqlash muhim jarayon. Ushbu ishda mikroservislar va klient-server arxitekturalarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: API Gateway, Server, API, HTTP, arxitektura, web, Klient server, Microservices


Tasavvur qiling online do'kon yaratmoqchisiz. Ilovangizda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Buyurtma berish
- Mahsulot haqida ma'lumotlar olish
- Mahsulot ro'yxatini olish


Shu xususiyatar asosida bizda bir nechta servislar(mikroservices) mavjud:

- Product Service
- Order Service
- Pricing Service
- Account Service
- Customer Review Service
- Inventory Service

Ilovangizdan foydalanish davomida foydalanuvchi bir necha servislardan foydalanadi. Agar siz asosiy oynaga kirib biror bir mahsulotga qidiruv bersangiz, mahsulotlar ro'yxatini chiqarib beradi. Bu ro'yxat shakllanish jarayonida yuqoridagi servislarga murojaat qilib mahsulot nomi, narxi, mahsulot tarixi va hokazolarni list ko'rinishida taqdim etadi. (quyidagi rasm)



Shunday qilib mahsulotni ko'rsatadigan kod **product servis, account servis, customer review servis lardan** ma'lumotlarni olib bizga ko'rsatadi.



Bu grafikdagi klient ilovasi **API kompasitor** vazifasini bajaradi. U bir nechta servis larni chaqiradi va birlashtiradi.

Bu holatda maummo nimada?

Yondashuv oqilona bo'lib ko'rinsada unda jiddiy muammolar mavjud.

1. **User ma'lumotlarini olish uchun bir nechta api ga request jo'natish**

Foydalanuvchi ma'lumotini olish uchun bir nechta so'rovlarni amalga oshirish kerak va foydalanuvchi so'rovlarini ketma-ketlikda bajarish kerak. Bu ketma-ketlikni amalga oshirish uchun **api kompozitsiyon kodini** yozish talab qilinadi va bu potensial murakkab vazifa.

2. **Servis lar o'zgarishidagi muammolar(Lack Of Encapsulation)**


Ma'lumki servislarga to'g'ridan to'g'ri kirishda ko'plab muammolar mavjud. Application rivojlanib borar ekan, bazida api larni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Natijada o'zgargan api lardan foydalanayotgan mijozlarda(web, andorid, iOS) larda api bilan bo'g'liq muammolar paydo bo'ladi.

3. **Mos kelmaydigan protokol(Unfriendly Protocol).**

Bazi servis lar **gRPC** yoki **AMQP** messaging protokollar ishlatilishi mumkin. Bu ichki servis lar uchun juda zo'r yechim bo'lishi mumkin. Lekin mobile klient yoki veb klientlar uchun anchgina muammo bo'lishi mumkin. Yoki ba'zi bir protokol mexanizmlarini klient platformalarida moslashtirish qiyin bo'lishi mumkin.

Bu holatda qanday yechim qilish mumkin? degan tabiiy savol tug'ilishi mumkun. Endi bu muammoni yechimi haqida gaplashsak.


Yechim:



API Gateway(AG) — bu mikroservislar to'plami uchun yagona kirish nuqtasi vazifasini bajaradigan servis.

API Gateway klientdan kelgan request(so'rov)larni qabul qiladi, ularni tegishli mikroservis larga yo'naltiradi va ularni javobini mijozga qaytaradi.

API Gateway marshrutlash, **autentifikatsiya** va **rate limiting** kabi vazifalar uchun javobgardir. Bu mikroservislariga o'zlarining individual vazifalariga e'tibor qaratish imkonini beradi va tizimning umumiy ishlashi va mashtablashni(scalability) yaxshilaydi.




Request Routing


API Gatewayning asosiy funksiyalaridan biri so'rovlarni marshrutlashdir. API Gatewayning so'rovlarni mos keladigan servislarga yo'naltirish orqali ba'zi API operatsiyalarini amalga oshiradi. So'rovni qabul qilganda, API Gateway requestni qaysi servisga yo'naltirish kerakligini ko'rsatadigan marshrutlash xartasiga murojaat qiladi.

API Composition

API Gateway API tarkibini ham ta'minlaydi. Men buni bazi bir misol yordamida tushuntiraman.




Yuqoridagi rasmda ko'rsatilganidek, Android klient bir nechta API so'rovlarini amalga oshiryapti.



Yuqoridagi rasmda ko'rsatilganidek, API Gateway API tarkibini taqdim etadi, bu esa android klientga bitta API so'rovi yordamida ma'lumotlarni samarali tarzda olish imkonini beradi.


Protocol Translation

API Gateway shuningdek, protokol tarjimasini ham ta'minlaydi. Application servislari ichki protokollar yig'indisidan, jumladan REST va gRPCdan foydalansa ham, u tashqi mijozlarga RESTful API taqdim etishi mumkin. Zarur bo'lganda, ba'zi API operatsiyalarini amalga oshirish RESTful tashqi API va ichki gRPC asoslangan API o'rtasida ma'lumotlarni almashina oladi.



API Gateway har bir mijozga xos va mos API lar bilan ta'minlaydi

Bitta yagona API bilan bog'liq muammo shundaki, turli mijozlar ko'pincha turli talablarga ega. Masalan, getOrder API operatsiyasi mahsulot ma'lumotlarini, to'lov ma'lumotlarini va inventar ma'lumotlarini qaytaradi. Ba'zi hollarda, barcha mijozlar barcha ma'lumotlarga muhtoj emas. Aytaylik, mobil mijozga faqat ma'lumotlarning bir qismi kerak. Bu holatda Yechim API Gatewayni har bir mijozga o'z APIsi bilan ta'minlaydi. Masalan, API Gateway getOrder Android, iOS va brauzer mijozlari uchun turli xil APIlarni taqdim etishi mumkin.


